

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Geografiya kafedrası

Qo`lyozma huquqida

Ismoilova (No`monova) Muhayyo Nabijon qizi

Farg`ona mintaqasida qishloq xo`jaligi hududiy tashkil  
etilishini takomillashtirish masalalari

5140600- geografiya ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish rahbari: katta o`qituvchi M.Atajonov

Andijon - 2018 yil

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
I.Bob. Qishloq xo`jaligini geografik o`rganishning nazariy masalalari.....	8
I.1.Qishloq xo`jaligi iqtisodiy geografik tadqiqot ob`yekti sifatida.....	8
I.2.Qishloq xo`jaligining joylanish xususiyatlari va omillari.....	11
II.Bob. Farg`ona vodiysi qishloq xo`jaligining hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi .....	22
II.1.Qishloq xo`jaligi ixtisoslashuvining o`ziga xos xususiyatlari.....	22
II.2. Farg`ona vodiysi qishloq xo`jaligining joylanishi va rivojlanishi.....	39
II.3. Farg`ona vodiysi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy yo`nalishlari..	54
Xulosa.....	60
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	63

## **Kirish**

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** Ma'lumki, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirish, eng avvalo hududlarning mavjud agroiklimiy, qishloq xo'jaligi maxsulotlari, mehnat resurslari zahiralari kabi tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda demografik salohiyatidan samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizda kichik hududlar qishloq xo'jaligini geografik jihatdan tadqiq etishni taqozo qiladi.

Qishloq xo'jaligining vazirligidan ma'lum qilishlaricha, oxirgi uch yilda paxta ekiladigan maydonlar qariyb 215 ming gektar qisqartirilgani agrar sohani diversifikatsiyalashda ulkan qadam bo'ldi. Butun boshli tumanlarda esa umuman chigit ekilmayotgani, ta'bir joiz bo'lsa, tarmoqda chinakam yangilanishlar davri kechayotganidan dalolat.

Darhaqiqat, ayni paytda Kitob, Asaka, Urgut, Bulung'ur, Jomboy, Zangiota, Bo'stonliq, Qibray, Parkent, singari 30 dan ziyot tumanlar paxta yetishtirishdan halos etilgan. Tabiati, iqlimi meva-sabzovotchilik uchun juda mos bo'lgan ma'zkur hududlarda uzum, meva-sabzovot, poliz va kartoshka yetishtirilib, ichki bozor servitamin ne'matlar bilan to'ldirilyapti, katta qismi esa eksportga chiqarilmoqda.

Mamlakatimizda oxirgi 3 yil mobaynida qisqartirilgan paxta maydonlari:

2016-yilda 30.5 ming gektar;

2017-yilda 63 ming gektar;

2018-yilda 134.9 ming gektar;

Paxta maydonlari maqbullashtirilgan ishlari kelgusida ham izchil davom ettiriladi.

Xususan:

2019-yilda-37.5 ming gektar;

2020-yilda-33-ming gektar qisqartirildi.

Bugungi kunda 30 dan ziyod tumanlar meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan bo'lib, ularda paxta umuman yetishtirilmayapti.

Bu yilda paxtadan bo'shagan maydonlarning 5.1 ming gektariga intensiv bog', 2.3 ming gektariga tokzor, 811 gektariga issiqxonalar barpo etiladi.

Yangi imkoniyatlarni inobatga olgan xolda, Respublika oziq – ovqat korxonalarini uyushmasi tomonidan kelgusi yillarda viloyatda meva – sabzavot, go'sht va sut maxsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar yangitdan tashkil qilinishi mo'ljallanmoqda.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda qishloq xo'jaligi geografiyasida amalga oshirilayotgan izlanishlarning aksariyat qismi mamlakat yoki viloyatlar miqyosida amalga oshiriladi.

Farg'ona vodiysi o'zining tabiiy-iqlimiy, iqtisodiy va ijtimoiy va demografik salohiyatiga ko'ra boshqa mintaqalardan ajralib turadi. Shu bilan birga qishloq xo'jaligi ixtisoslashuviga oid tadqiqotlar deyarli olib borilmagan. Ko'rinib turibdiki, mintaqa qishloq xo'jaligini geografik o'rganish, undagi mavjud xususiyat va omillarni tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir.

**BMI mavzusining o'rganilganlik darajasi.** Bozor munosabatlariga o'tish davrida O'zbekiston milliy iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek fermer, dehqon va boshqa toifadagi xo'jaliklar hamda aholi tomorqalarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni yanada ko'paytirishga, qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etish va rivojlantirish muammosiga katta e'tibor qaratilishi bejiz emas.

Keyingi yillarda meva-sabzavotchilik sohasida ham keng ko'lamli islohotlar o'tkazilib salmoqli natijalarga erishilmoqda. Bugun yurtimiz bozorlari har xil meva-sabzavot mahsulotlari bilan to'lib toshgan.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "...meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni va tegishli qarori ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni jadallashtirish zarur"-deb bejiz ta'kidlamagan<sup>1</sup>. Sohani rivojlantirish yuzasidan 2016 yilda ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Qishloq xo'jaligi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni.

moddiy ishlab chiqarishning dastlabki yirik sohasi hisoblanib, uning asosiy vazifasi mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatni esa xom ashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iborat.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, jumladan, chorvachilikka bo'lgan e'tibor muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shahar atrofi xo'jaliklarida sabzavotchilik, polizchilik va bog'dorchilik bilan bir qatorda go'sht-sut mahsulotlarini yetishtirish muhim masala hisoblanmoqda.

O'zbekistonda shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarini aholi, ayniqsa qishloq aholisi bandligining o'sishi, uning daromadi va umuman turmush darajasini oshirish, ichki bozorini hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlari go'sht-sut, meva-sabzavot, kartoshka va boshqa mahsulotlar bilan barqaror to'ldirishning muhim omili sifatida rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda mintaqa o'zining qishloq xo'jaligining rivojlanganligiga eng ilg'or hududlaridan biri hisoblanadi, jumladan, shahar atrofi xo'jaliklarini rivojlantirish, fermer xo'jaliklarining istiqbolini belgilash, sabzavot, poliz, meva, bog'dorchilik, uzumchilik, go'sht-sut chorvachiligini rivojlantirish va hududiy tashkil etish, mavjud muammolarni chuqur va har tomonlama tadqiq etish muhimligi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Aholi, ayniqsa, yirik shaharlar aholisining kundalik qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda sabzavot, poliz, meva, bog'dorchilik, uzumchilik, go'sht-sut chorvachiligi muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga talab-ehtiyojning ta'siri ortib bormoqda.

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi salbiy oqibatlarini bartaraf etishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning xajmini ko'paytirish orqali uning narxini ma'lum darajada pasaytirishga erishish mumkin. Bu jarayon eng avvalo iste'molchilarning katta qismi to'plangan yirik shaharlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda mamlakatimiz qishloq xo'jalik rayonlari tarkibi hudud nuqtai-nazardan o'zgarib bormoqda. Jumladan, yirik shaharlar,

xususan Andijon, Farg`ona, Namangan, Qo`qon kabi shaharlar atrofidan paxtachilikning chekinib borishi va uning o`rniga savzavotchilik va bog`dorchilikning rivojlanishi namoyon bo`lmoqda. Bundan ko`rinadiki, qishloq xo`jaligi tarmoqlarining joylanish va rivojlanish qonuniyatlari bozor iqtisodiyoti davrida o`ziga xos xususiyat kasb etmoqda. Demak, yirik markazlar atrofida shahar atrofi qishloq xo`jaligi mintaqalarining vujudga kelishi, ularning ixtisoslashuvini geografik o`rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining obekti** –Farg`ona vodiysi qishloq xo`jaligi tarmoqlari hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** – Farg`ona vodiysi qishloq xo`jaligining joylashish xususiyatlari hamda omillarini tahlil qilishda o`z ifodasini topadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi** - Farg`ona vodiysi qishloq xo`jaligini geografik tadqiq qilish asosida undagi mavjud muammolarni aniqlash hamda uni hal etishning ustivor yo`nalishlarini ko`rsatib o`tishdan iborat.

Maqsaddan kelib chiqib quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- qishloq xo`jaligini geografik tadqiq qilishning nazariy asoslarini yoritish;
- qishloq xo`jaligini joylashish xususiyatlari hamda omillarini tahlil qilish;
- Asaka tumani reliefi, iqlimi va ichki suvlari, tuproq qoplaminiqishloq xo`jaligi nuqtqi-nazardan baholash;
- aholi dinamikasi va mehnat resurslaridan qishloq xo`jaligida foydalanish muammolarini o`rganish;
- qishloq xo`jaligi rivojlanishining asosiy xususiyatlarini ochib berish hamda mavjud muammolar bo`yicha tegishli takliflar ishlab chiqish va h.k

**BMI ning nazariy uslubiy asoslari.** O`zbekiston Prezidentining asarlari va farmonlari, O`zbekiston respublikasi qonunlari, hukumat qarorlari, mamlakatimiz geograf olimlarining ilmiy ishlari hamda o`quv uslubiy qo`llanmalari hizmat qildi. Tadqiqot jarayonida statistik, guruhlash, taqqoslash uslublari qo`llanildi. BMI ni tayyorlashda taqqoslash, statistik, tizimli yondashuv va kartografik metodlardan foydalanildi.

**Ilmiy yangiligi** mintaqa qishloq xo`jaligi geografiyasining o`ziga xos xususiyatlarini ilk bor tahlil qilinganligi bilan ifodalanadi.

Bitiruv malakaviy ishi natijalari va unda keltirilgan xulosalardan mintaqaning qishlo xo`jaligini rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi.** BMI kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, u 64 betni o`z ichiga oladi. Matnda 3 ta jadval hamda 4 ta rasm keltirilgan.

## **I.Bob. Qishloq xo`jaligini geografik o`rganishning nazariy masalalari**

### **I.1.Qishloq xo`jaligi iqtisodiy geografik tadqiqot ob`yekti sifatida**

Qishloq xo`jaligi umuman iqtisodiyotning qadimiy sohasidir. Dastlabki ijtimoiy mehnat taqsimoti ham avval chorvachilik, so`ngra dehqonchilikning paydo bo`lishi bilan bog`liq. Dehqonchilik va xususan sug`orma dehqonchilik jamiyat taraqqiyotida alohida, inqilobiy ahamiyatga ega bo`lgan. Sababi aynan sug`orma dehqonchilik jamoa, uning asosida doimiy aholi manzilgohlarining vujudga kelishida muhim rol o`ynagan. Keyinchalik dehqonchilik hunarmandchilik va savdo-sotiqni, ular esa o`z navbatida manfaktura va yirik mashina industriyasini rivojlantirishga olib kelgan.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi uchun quyidagilar xos:

- agrar soha bevosita tabiiy sharoit bilan bog`liqligi tufayli u mavsumiy xarakterga ega;
- mavsumiyliги uchun mehnat resurslari ham yil davomida band emas;
- qishloq xo`jaligi rivojlanishi sanoatga nisbatan o`zgaruvchan ko`rinishda boradi;
- bu tarmoqda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil qilish shakllari o`ziga xos mujassamlashuv va ixtisoslashuv torroq, kooperatsiya va kombinatlashuv esa juda kam hollarda uchraydi;
- qishloq xo`jaligi tarmoqlari areal yoki maydon shaklida hududiy tashkil qiladi;
- mazkur tarmoqda ektensiv va intensiv rivojlanish yaqqol ko`rinadi;
- qishloq xo`jaligining tarmoqlar tarkibi sanoatga o`xshash uncha boy emas;
- qishloq xo`jaligida mulkchilikni xususiylashtirish osonroq;
- xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, chet el investorlarini qishloq xo`jaligiga jalb qilish kamroq va hokazo.

Yuqoridagi xususiyatlar ushbu tarmoqning iqtisodiyoti va geografiyasiga jiddiy ta`sir ko`rsatadi. Chunonchi, tabiiy sharoitning iqlim va ob-havoning noqulayligi qishloq xo`jaligi unumdorligi, u esa qayta ishlovchi (oziq-ovqat) sanoatiga va pirovard natijada xalqning turmush darajasini pasayishiga olib keladi.



Qolaversa, qishloq xo'jaligi bilan sanoatning boshqa tarmoqlari: mashinasozlik, ximiya, qurilish sanoati va elektr-energetika ham aloqadordir.

Mehnat resurslaridan foydalanishning mavsumiyliigi, ishlab chiqarishning mujassamlashuv darajasini yuqori emasligi mazkur tarmoqning iqtisodiy ko'rsatkichlarini pasaytiradi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida yer ishlab chiqarish vositasi bo'lib, uning tabiiy hosildorligi hamma joyda ham bir xil emas.

Qishloq xo'jaligi asosan ikki katta tarmoqdan, ya'ni dehqonchilik va chorvachilikdan tashkil topgan. Yer yuzi bo'yicha qishloq xo'jaligida dehqonchilik oldinda turadi. Biroq, shunday bo'lsada dehqonchilik va umuman qishloq xo'jaligida tarmoqlarning turlanishi sanoatga nisbatan sustroq bormoqda. Ayni vaqtda qishloq xo'jaligida ayrim yangi yo'nalishlar – broyler parrandachiligi, (teplitsa) issiqxona xo'jaligi, sut va go'sht fabrikalari, o'zlarining tashkil qilinishiga qarab ko'proq industrial sohaga yaqin turadi.

So'nggi yillarda ba'zi bir mahsulotlarning yetishtirilishi (pomidor, bodring, ziravorlar va b.) mavsumiy xususiyatini yo'qotib bormoqda. Masalan, bozorlarda bunday mahsulotlar deyarli yil bo'yi mavjud. Albatta, bu o'rinda "geografik konveyr" ning roli ham bor. Chunki, yuqoridagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib turish turli hududlarda, ularning agroiklimiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda navbatma-navbat amalga oshiriladi. Ana shuni qayd etish joizki, ayrim qishloq xo'jaligi mevalarining geografiyasi tobora kengayib bormoqda. Chunonchi, anjir, anor va ayniqsa xurmo faqat alohida, subtropik rayonlarning mevasi bo'libgina qolmay, ular endigi sharoitda ko'pgina hududlarda yetishtirilmoqda.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishga tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy komponentlar ichida eng avvalo iqlim, suv va tuproqning ahamiyati katta. Iqlim sharoitlari, harorat, yer osti va yer usti suvlari, tuproq xususiyatlari qishloq xo'jaligining tarmoqlar va hududiy tarkibini ko'p jihatdan belgilab beradi.

Foydali harorat, ya'ni yig'indisi yil davomidagi sutka haroratining  $+10^{\circ}\text{S}$  dan yuqorisi va ijobiy harorat yig'indisi (erta bahordan to kech kuzgacha ijobiy

haroratning sutkasi) o'simliklarning pishib yetishi uchun talab qilinadigan vegetatsiya davrini shakllantiradi. Masalan, paxta uchun birinchi ko'rsatkich eng kamida 2000 °C, ikkinchisi 4000 °C bo'lishi kerak.

Qishloq xo'jaligi uchun yerning ahamiyatini ta'kidlagan edik. Ammo har qanday yer maydoni ham bu sohada intensiv foydalanish imkoniyatiga ega emas. Binobarin, hududlarning qishloq xo'jalik salohiyati ekin ekiladigan yoki haydaladigan yer va umumiy yer maydonining nisbati, yer fondining hajmi va tarkibi orqali belgilanadi. Ayniqsa, sug'oriladigan yer maydoni bilan qishloq aholisining ta'minlanganlik darajasi katta mazmunga ega.

Ayni chog'da bizning sharoitimizda faqat yer maydonining bo'lishi yetarli emas. Buning uchun albatta yana issiq harorat va suv, namgarchilik talab qilinadi. Chunki, O'zbekistonda yetishtiriladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining ko'pchiligi issiqtalab va suvtalabdir. Ayniqsa, bodring, pomidor, baqlajon, sholi kabilarda suv sarfi ancha yuqori.

Qizig'i shundaki, tabiatda bir joyning o'zida issiq, harorat, dehqonchilikka yaroqli yer maydoni va suv kamdan-kam hollarda uchraydi. Suv bor joyda qulay yer maydoni yo'q (tog'lilar), yer maydoni bor joyda suv yo'q (cho'llar). Birinchisida dehqonchilik uchun terrasa usuli, ikkinchisida sun'iy sug'orish qo'llaniladi.

Qadimda sug'orma dehqonchilik daryolarning qo'yilishi qismida deltasida rivojlangan va buning uchun tabiiy hosildor allyuvial yotqiziqlardan foydalanilgan. Bizning o'lkamizda dastlabki vohalar aynan mana shunday hududlarda vujudga kelgan. Keyinchalik sug'orma dehqonchilik geografiyasi daryolarning qo'yilishidan ularning yuqori qismlariga ko'tarilib borgan, suv omborlari va kanallar qurilishi munosabati bilan tog' yon bag'ri, adirlar ham ishlab chiqarish oborotiga kiritilgan vohalar bir-biriga tutashib ketgan.

Havo (harorat), suv, tuproq-qishloq xo'jaligi rivojlanishi va foydalanishining asosiy uch shartidir. Shu bilan barcha melioratsiya va irrigatsiya, mehnat resurslari, fan-texnika taraqqiyoti, transport va boshqalarning ham ahamiyati muhimdir.

Masalan, ishchi kuchi omili, ayniqsa, sug'orma dehqonchilikda, sabzavotchilikda katta rol o'ynaydi.

## **I.2.Qishloq xo'jaligining joylanish xususiyatlari va omillari**

Shahar atrofi xo'jaligini joylashtirish va rivojlantirish bo'yicha ilk ilmiy tadqiqot 1826 yilda Germaniyada nemis olimi Tyunen tomonidan amalga oshirilgan. U yirik iste'molchi shaharga nisbatan qishloq xo'jaligi tarmoqlarining, ularning mahsulotini iste'mol qilinishi hamda transportdashib kelinishi imkoniyatlariga ko'ra hududiy tashkil etish tartibini yaratgan. Jumladan, u har doim va hamma uchun kerak bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bevosita shahar atrofida yetishtirilishi lozimligini asoslab bergan. Shuningdek, uzoq masofadan tashilishi noqulay yoki keltirish jarayonida sifati buziladigan mahsulotlarni iste'molchilarga nisbatan yaqin joylashtirish kerakligini ta'kidlagan. Shu tartibda shahar atrofida sabzavotchilik, sut chorvachiligi, donchilik, go'sht chorvachiligi tashkil etiladi. Bunday joylashtirish xalqasimon ko'rinishda bo'lganligi sababli mazkur g'oya ilmiy adabiyotlarda "Tyunen halqalari" deb yuritiladi.

Sobiq ittifoq iqtisodiy geografiyasida qishloq xo'jaligi geografiyasi muammolari bilan K.Ivanov, A.Rakitnikov, O'zbekistonda Z.Akromov, R.Hodiyev, A.Ro'ziyev, A.Abirqulov, A.Soliyev, A.Qayumov, J.Musayev, A.Sodiqov, Farg'ona vodiysida O.Abduallaevlarning ilmiy izlanishlarini ko'rsatish mumkin. Ammo, bevosita Andijon shahar atrofi qishloq xo'jaligini iqtisodiy geografik o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar mavjud emas. Shuning uchun ham, bunday tadqiqotlar hozirgi kunda ilmiy va amaliy ahamiyati katta bo'lgan tadqiqotlar sirasiga kiradi.

Ta'kidlash kerakki, shahar atrofi xo'jaligini rivojlantirish muammolari ayrim viloyatlarda haligacha o'zining mukammal yechimini topganicha yo'q. Mavzuni o'rganish jarayonida asosiy e'tiborni shahar atrofi xo'jaliklarida aholi uchun eng zarur bo'lgan sabzavot, poliz, bog'dorchilik va uzumchilikka qaratildi. Chunki yuqoridagi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab kundan-kun oshib

bormoqda. Viloyat aholi sonining yuqori darajada ko‘payishi ushbu mahsulot turlariga bo‘lgan talabni yanada kuchaytirmoqda.

Tabiiyki, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari hamda mintaqalarning rivojlanishi turli xil omil va sharoitlarga ham bog‘liq bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini joylashtirishda suv va iqlim sharoitlari, mehnat resurslari, iste‘mol va transport, iqtisodiy geografik o‘rin kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ekologiya, ilmiy-texnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyoti omillarining bu boradagi roli ham oshib bormoqda.

Ko‘rinib turibdiki, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini joylashtirishga ta’sir etuvchi omillar juda ko‘p. Modomiki bu omillar ko‘p ekan, demak:

- ularning ta’sir darajasi har xil bo‘ladi;
- bu omillarni guruhlash talab etiladi;
- omillar va ishlab chiqarishni joylashtirishni o‘rganishda kompleks (ya’ni har tomonlama) yondoshuv zarur.

Tabiiy sharoit va agroiqlimiy resurslar. Shahar atrofi qishloq xo‘jaligi o‘ziga xos tarmoq bo‘lib, sanoatdan keskin farq qiladi. Sanoat tarmoqlari deyarli tabiiy sharoitga moslashmagan holatda issiq, sovuq iqlim sharoitlarida joylashtiriladi.

Shahar atrofi qishloq xo‘jaligi, birinchi navbatda dehqonchilik tarmoqlari tabiiy sharoitga moslashgan holatda joylashtiriladi. Shu bilan birga, chorvachilik tarmoqlari ham mahalliy tabiiy sharoitlarga moslashtiriladi. Qishloq xo‘jaligida dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari ma’lum bir ekologik sharoitda rivojlanadi, holos.

Tabiiy sharoit deganda muayyan hududning yer usti tuzilishi, ya’ni rel’efi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, o‘simlik va hayvonot dunyosi tushuniladi. Tabiiy resurslarga yer osti boyliklari, iqlim, ichki suvlar, tuproq va o‘simliklar kiritiladi.

Joyning rel’efi qishloq xo‘jaligida ma’lum bir tarmoqlarni rivojlantirishga qulaylik yaratadi. Ekinlarni sug‘orishda, texnikadan foydalanishda tekis yerlar juda qulay hisoblanadi. Nisbatan yer osti suvlari chuqur joylashgan yerlarda bog‘dorchilik, uzumchilik yaxshi rivojlanadi. Bu yerda doimiy esuvchi mahalliy

shamollar xilma-xil kasalliklarning ko‘payishiga yo‘l bermaydi.

Iqlim deganda mana shu joy uchun xos bo‘lgan ob-havoning muayyan davrlar mobaynida doimiy takrorlanib turishiga aytiladi. Qishloq xo‘jaligi nuqtai-nazaridan iqlimning eng asosiy elementlari hisoblangan havo harorati, yog‘in-sochin miqdori va shamollar eng muhim ahamiyat kasb etadi. Havo harorati xaftalik, oylik va yillik guruhlardan tashkil topgan. Qishloq xo‘jaligida mutlaq sovuq va issiq harorat, bahor oylarida tushadigan eng oxirgi sovuq, kuz faslida tushadigan eng birinchi sovuq ham katta o‘rin tutgani uchun albatta hisobga olinadi.

Qishloq xo‘jaligida madaniy ekinlarning vegetatsiya davridagi foydali haroratlar yig‘indisi katta ahamiyatga ega. Madaniy ekinlar ekilishidan boshlab to rivojlanishi to‘xtagan kungacha olingan harorat miqdori har bir ekinning rivojlanish davrini ko‘rsatadi va u madaniy ekinlarning vegetatsiya davrideb yuritiladi. Madaniy ekinlarning vegetatsiya davri qisqa yoki uzoq davom etishi mumkin. Odatda tropik mintaqalardan kelib chiqqan madaniy o‘simliklarning vegetatsiya davri uzoq, mo‘‘tadil mintaqa o‘simliklarining vegetatsiyasi esa qisqaroq davom etadi.

Iqlim har bir joyning o‘ziga xos xususiyati bilan xarakterlanadi. Tekislik, tog‘ va tog‘ oldi, vodiy iqlimi bir-biridan keskin farqlanadi.

Qishloq xo‘jaligida yog‘in-sochin miqdori va uning fasllar bo‘yicha taqsimlanishi ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa kuz, qish va bahor oylarida yog‘adigan yomg‘ir, qorlarning oz-ko‘pligi ekinlarning ekilishi va rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Xo‘jalikning barcha tarmoqlari, shuningdek, aholining joylashuvida tabiiy sharoitning roli katta. Bu borada ayniqsa yer, suv, harorat, tuproq kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Yerning ishlab chiqarishni joylashtirishdagi o‘rni uning maydoni, katta-kichikligi, geomorfologik xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi taraqqiyotida fan va texnika yutuqlarining ahamiyati juda yuqori. Aholi tabiiy o‘simliklarni madaniy ekinga aylantiribgina qolmasdan, ayrim o‘simliklarning vegetatsiya davrini qisqartirish, sun‘iy

sharoitlarda yetishtirishni yo'lga qo'ygan, seleksiya va genetika yutuqlaridan keng foydalanmoqda. Shunday bo'lsa-da, tabiiy sharoit qishloq xo'jaligining asosiy omili bo'lib qolmoqda.

Tabiiy sharoit qishloq xo'jaligining ixtisoslashishiga va ishlab chiqarishning samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy sharoit deganda qishloq xo'jaligining asosi bo'lgan yer va suv resurslari, madaniy ekinlarning o'sib, rivojlanishi uchun zarur bo'lgan agroiqlimiy resurslar, ya'ni quyosh yorug'ligi va issiqligi, namlik, tuproqning tabiiy unumdorligi va bu unumdorlikni sun'iy yo'llar bilan oshirish hamda chorva mollarining yem-hashak bazasi sifatida foydalaniladigan tabiiy o'simlik resurslari tushuniladi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish asosida insonning atrof-muhitga ta'siri kuchayib boradi. Yer shari tabiat mintaqalarining tabiiy landshaftlarida ro'y berayotgan deyarli barcha o'zgarishlar qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'langan. Fan-taxnika inqilobi davrida atrof-muhit holatini keskin o'zgartirib yuboradigan omil sifatida qishloq xo'jaligining ekologik ahamiyati yanada ortib boradi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning asosiy vositasi yer hisoblanadi. Yerning xususiyatlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining konsentratsiyasi va ixtisoslashuvida o'ziga xos formalarni keltirib chiqaradi. Tuproq unumdorligini oshirish uchun dehqonchilikda ilmiy sistemalarni ishlatishga imkon beradi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositalari sifatida tirik organizmlardan o'simlik va hayvonlardan keng foydalaniladi. Shu sababli ham qishloq xo'jaligi taraqqiyotida iqtisodiy va biologik qonunlar bir-biriga qo'shilib ketadi. Qishloq xo'jaligi mavsumiy xarakterga ega bo'lgani uchun ishlab chiqarish davriga to'g'ri kelmaydi va mehnatdan ishlab chiqarish vositasi sifatida mavsumiy foydalaniladi

Yer jamiyat rivojlanishining eng qadimiy, eng birlamchi omilidir. Ksenofont (e.o.430-355 yy..) «Er insonni sog'lom, to'q va adolatli qiladi», deb yozgan edi. Ingliz iqtisodiyoti va statistikasining asoschilaridan biri U.Petti (1623-1687yy..) fikricha, mehnat boylikning otasi, yer esa uning onasidir. Yana shuni ta'kidlash lozimki, agar yer ko'pgina xo'jalik tarmoqlari-sanoat, transport va boshqalar uchun

oddiy sharoit sifatida xizmat qilsa, u qishloq xo'jaligida bebaho boylik, muhim resurs hisoblanadi.

Suv resurslarining ham ahamiyati ko'p funksiyali. Mazkur omilning qishloq xo'jaligi va, ayniqsa sug'orma dehqonchilikdagi o'rni yanada yuqori va an'anaviyroq. Zero, dastlabki madaniylashgan, rivojlangan joylar aynan Yer yuzining sug'orma dehqonchilik rayonlarida, vohalarda vujudga kelgan (Nil deltasi, Mesopotamiya, Hind-Gang pasttekisligi, Xuanxe daryosining o'rta qismi, Movarounnahr va b.).

Suv mo'l bo'lgan hududlarda, odatda, sholi, sazavot kabilar ekiladi. Paxta ham ancha suvtalabdir. Qizig'i shundaki, yer maydoni bor joyda, suv yetishmaydi va, aksincha suv ko'p tog'li hududlarda sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish mushkul. To'g'ri, har ikkalasi muhayyo bo'lgan joylar ham yo'q emas. Ammo bunday joylarda havo harorati yetishmasligi mumkin. Demak, qishloq xo'jaligi va ayniqsa uning serdaromad tarmog'i dehqonchilik uchun uch asosiy omil: yer, suv va harorat zarur. Albatta, bu mazmunda yer faqat oddiy ekin maydoni mazmunidagina emas, balki uning tuproq qatlami bilan ahamiyatlidir. Binobarin, agroiklimiy resurslarni harorat, suv va tuproq birligida ko'rish yanada to'g'riroq bo'ladi.

Andijon viloyatining yer boyligi uncha katta emas. (maydoni 4,2 ming kv.km.). ammo iqlim sharoitlari ham qulay-ba'zi qishloq xo'jalik mahsulotlarini bir yilda 2-3marta hosilini olish mumkin. Biroq, qishloq xo'jaligida mavjud yerlardan unumli foydalanish uchun irrigatsiya va melioratsiya, agroinfrastruktura tizimini rivojlantirish zarur.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ichida eng muhimi aholi va mehnat resurslaridir. Albatta, har qanday ishlab chiqarish jarayoni ishchi kuchisiz sodir bo'lmaydi.

O'zbekistonda mahalliy aholining tabiiy ko'payishini nisbatan yuqoriligi va uning migratsion harakatining faolsizligi mehnat zahiralari ko'plab shakllanishiga olib keladi. Shu sababli Respublikada mehnatga layoqatli aholi soni miqdoran juda ko'p. Ularning soni, ayniqsa, qishloq joylarida va sust rivojlangan kichik shaharlarda yuqori. Binobarin, bunday joylarda ish o'rinlarini kengaytirish, yangi sanoat va

boshqa korxonalar, madaniy-maishiy muassasalarni qurish, mehnat bozorini shakllantirish kerak.

Aholi, albatta, faqat ishchi kuchi emas, u balki ko'proq darajada iste'molchi hamdir. Bu omilning roli esa hozirgi kunda xalqning yashash sharoiti va darajasini yaxshilash doirasida keskin oshib bormoqda. Muvaqqat ijtimoiy qiyinchiliklarni yengillashtirish uchun aholining kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak va uning boshqa ehtiyojlarini qondiruvchi mahsulotlarni yetarli darajada ishlab chiqarish talab etiladi. Shu bois iste'mol omili oziq-ovqat korxonalarini o'ziga «tortadi», ya'ni bunday zavod yoki fabrikalar, aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlari qishloq va shaharlarda joylashtiriladi.

Iste'mol omili faqat xalq ehtiyoji bilan belgilanmaydi. Ishlab chiqarishning o'zini talabi, boshqa xil mahsulotlarning keng miqdorda sarflanishi, ularning transportda keltirishning noqulayligi ham bunday korxonalarining iste'mol rayonlarida qurilishini taqozo etadi. Ayrim qishloq xo'jaligi tarmoqlarini ham aholi yashab turgan joylarda o'rinlashtirish maqsadga muvofiq. Masalan, ko'p iste'mol qilinadigan, qishloq xo'jalik mahsulotlari-sut, piyoz, karam va boshqalar shahar atrofi xo'jaligi doirasida yetishtiriladi.

Transport omili juda muhim, chunki u ishlab chiqarishning bevosita davom ettiruvchi tarmog'i hisoblanadi. Transport infrastrukturasi bo'lmasa xom ashyo ham keltirilmaydi, mahsulot ham iste'molchilarga yetkazilmaydi, hududiy mehnat taqsimoti rivojlanmaydi. Shuning uchun transportning ahamiyati barcha boshqa omillar ta'siri bilan qo'shib, uyg'unlashib ketadi va uni «sof» holda ajratib olish qiyin. Shu bilan birga transport masalasi iqtisodiy geografik o'rin omili bilan ham chambarchas bog'liq. Zero, bu o'rin ob'ektning eng avvalo tashqi iqtisodiy munosabatlarini anglatadi.

Ishlab chiqarishni joylashtirishning «qulayligi» ko'p jihatdan uning arzonligi, arzonligi esa asosan transport xarajatlarining kamaytirilishi demakdir. Shuning uchun ham ishlab chiqarishni joylashtirishdagi klassik g'oya: I.Tyunenning qishloq xo'jaligi shtandortini transport omilisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'lumki, iqtisodiyot tarmoqlari ichida eng qadimiysi qishloq



xo'jaligidir. Uning evolyutsion rivojlanishi hududiy tashkil qilish shakllarining murakkablashib borishi va takomillashuvi bilan birga sodir bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, aynan ana shu olim iqtisodiyot nazariyasida birinchi bo'lib ishlab chiqarishning hududiy jihatiga e'tibor qaratdi, hududiy iqtisodiyot ta'limotiga qo'l urdi, iqtisodiy makon tushunchasini fanga kiritdi. U iqtisodiyotni hududiy tashkil etish masalalariga majmual, tizimli yondoshdi, qishloq xo'jaligi tarmoqlari joylashuvining qonuniyatlarini ochib berdi.

I.Tyunen o'zining ilmiy g'oyasini abstrakt holatda, alohida, boshqa mamlakatlar bilan bog'liq bo'lmagan, ajralib turgan davlat misolida yaratdi. Uning faraz qilishicha, bu mamlakatda atigi bitta shahar mavjud bo'lib, u qishloq xo'jalik mahsulotlarini iste'mol qiluvchi yagona bozor yoki markaz vazifasini o'taydi. Mazkur shahar atrofida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish asosan transport xarajati, mahsulot vazni, uning sifatini buzilmasligi va keltirish masofasi belgilaydi. Aynan ana shu transport omili, uning iqtisodiy jihatlari qishloq xo'jalik tarmoqlarini shahardan uzoq yoki yaqin masofada joylashuv tizimini shakllantirdi. Agar mahsulot yetishtirish va uni markazga keltirish qancha arzon bo'lsa, u shuncha yaqin masofada, aks holda uzoqroqda joylashadi

Yuqoridagi tartibda qishloq xo'jaligini joylashtirish shahar atrofida o'ziga xos aylanalarni hosil qiladiki, ular ilmiy adabiyotlarda «Tyunen xalqalari» nomi bilan mashhur. Masalan, bu xalqaning eng birinchisi yuqori darajada unumdor shahar atrofi xo'jaligidan iborat bo'lib, undan keyingi xalqa o'rmon xo'jaligi, uchinchisi-meva va urug'chilikdan tashkil topadi. Jami Tyunen 6 xalqa belgilangan; ular, yuqoridagilardan tashqari, turli yo'nalishdagi chorvachilikni ham o'z ichiga oladi.

Albatta, I.Tyunen g'oyasi ma'lum darajada abstraktdir; chunki hech qanday davlat, ayniqsa iqtisodiyotning hozirgi globallashtirish va baynalminallashtirish jarayonida jahon xo'jaligi tizimidan ajralgan holda, alohida rivojlana olmaydi. Qolaversa, bu mamlakatda odatda bir emas, bir necha shahar mavjud bo'ladi va o'rnashgan joyning tabiiy sharoiti aynan bir xil emas. Biroq, shunga qaramasdan,

muallifning ushbu ta'limoti o'zining nazariy ahamiyatini, xususan bozor iqtisodiyoti sharoitida saqlab qolgan.

Chindan ham qishloq xo'jaligi hozirgi kungacha xalqasimon tashkil etiladi: eng yaqin joyda sabzavot, karam, kartoshka, undan uzoqroqda sut chorvachiligi, donchilik, parrandachilik, bog'dorchilik va uzumchilik, go'sht- jun chorvachiligi ma'lum tartibda joylashadi. Bunday hududiy agrotizimning vujudga kelishida transport, bozor omili, mahsulotning arzonligi va xaridorgirligi, sifatining buzilmasligi katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birga keyingi yillarda transport infrastrukturasi takomillashuvi, iste'molning xususiylashuvi (individullashuvi), «yashil inqilob», qishloq xo'jaligining mexanizatsiyalashuvi, sanoatning qishloq joylarga kirib borishi kabi yangiliklar, agrobiznes, ya'ni qishloq xo'jaligini qayta ishlash sanoati bilan uyg'unlashtirish, birlashtirish bu sohaning hududiy tashkil etishga ancha o'zgartirishlar kiritdi. Bundan tashqari, yuqorida qishloq xo'jaligi tarmog'ining faqat bir funksiyasiga, ya'ni uning aholini oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish tomoniga ko'proq e'tibor qaratildi, xolos. Agar shu nuqtai nazardan yondoshadigan bo'lsak, rus olimi K.I.Ivanovning «geografik konveyr» g'oyasi ham ma'lum ahamiyat kasb etadi. Ushbu g'oyaning asosiy mazmuni mamlakatning yirik markazlarini yil davomida uning turli hududlaridan qishloq xo'jaligi, ayniqsa «shaharbop» mahsulotlar–pomidor, bodring, karam, ko'katlar bilan ta'minlab turishdan iborat. Darhaqiqat, oxirgi yillarda bozorlarda yuqoridagi mahsulotlar yilning to'rt faslida ham mavjud.

Ijtimoiy mehnat taqsimotining shakllaridan biri qishloq xo'jaligini hududiy joylashtirishdir. Qishloq xo'jaligining joylashtirilishi muayyan mahsulot ishlab chiqarish hajmi va miqdor ko'rsatkichlarini o'zida ifodalaydi. O'z navbatida hududlar(mintaqa)larning mahsulot yetishtirishdagi salmog'ini o'zida aks ettiradi.

Mintaqalar bo'yicha qishloq xo'jaligini joylashtirish mehnatni to'g'ri taqsimlashga, ya'ni mintaqaviy ixtisoslashuvga olib keladi. Ilmiy-taraqqiyot ixtisoslashuvning chuqurlashuviga, sifat o'zgarishlariga, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarga, konsentratsiyalashuvga ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligini

hududiy joylashtirish uning ixtisoslashuvida o'z ifodasini topadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot va joylashtirish bir-biri bilan chambarchas bog'langan va o'zaro aloqadorlikda rivojlanadi. Kompleks avtomatlashtirish, elektrlashtirish va mexanizatsiyalash mehnat unumdorligini keskin oshiradi. Joylashtirish ham qishloq xo'jaligi va u bilan aloqador tarmoqlarda texnik taraqqiyotni rag'batlantiradi.

Ishlab chiqarishni joylashtirish-qishloq xo'jaligi tarmoqlarining hududlar bo'yicha geografik tarqalishidir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun mintaqalarning tabiiy, iqlimiy, iqtisodiy va sotsial omillari hisobga olinib dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari joylashtiriladi. Ular mintaqaviy va geografik jihatdan taqsimlanadi.

Ishlab chiqarishni joylashtirish negizida iqtisodiy shart-sharoitlar yotadi. Qishloq xo'jaligida joylashtirish quyidagi qonuniyatlar orqali amalga oshiriladi:

- tabiiy sharoit va agroiqlimiy resurslar;
- iste'molchi;
- transport;
- ilmiy-texnik taraqqiyot;
- mehnat resurslari;
- ekologik.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishda tabiiy sharoit va agroiqlimiy resurslarning ahamiyati juda yuqoridir. Ayniqsa yer, suv, harorat, tuproq, yer usti tuzilishi muhim o'rin tutadi. Tabiiy sharoiti eng qulay bo'lgan hududlarda ekinlar hosildorligi va chorva mollarining mahsuldorligi yuqori bo'ladi.

Yer va suv resurslari qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalarini, ayniqsa dehqonchilik tarmoqlarini joylashtirishning eng birlamchi omilidir. Ular qishloq xo'jaligida bebaho boylik hisoblanadi. Suv resurslariga boy bo'lgan hududlarda suvni ko'p talab qiluvchi sholi, paxta, sabzavot kabi ekinlar ekiladi.

Tabiiy sharoiti noqulay bo'lgan qurg'oqchil cho'l va tog'li hududlarda sug'orma dehqonchilik qilishga imkoniyat deyarli yo'q. Shuning uchun bu yerlarda chorvachilik tarmoqlari joylashtiriladi.

Tabiiy sharoit va agroiqlimiy resurslar nafaqat dehqonchilik, balki chorvachilik tarmoqlarining ham joylashtirilishiga o'zining kuchli ta'sirini ko'rsatadi. Chorva mollariga yem-hashak ekinlarining ekilishi va ularning yaylovlar bilan ta'minlanishi, zotdor va mahsuldor chorva mollarini boqish tizimi, chorvachilik komplekslari va fermalari hamda ularning qiymatlari tabiiy sharoitga bog'liq bo'ladi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalarini iste'molchilargayaqin joylashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi aholini oziq-ovqat va sanoatning ayrim tarmoqlarini hom ashyo bilan ta'minlaydi. Ular bir oz noo'rin joylashtirilsa rivojlanish sekinlashishi yoki pasayib ketishi mumkin.

Yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining hajmi va sifati ASK korxonalarining joylashuviga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va uning asosiy is'te'molchilaridan biri qayta ishlash korxonalari o'rtasida o'zaro aloqadorlik saqlanishi lozim.

Transport iqtisodiyotning qon tomiri hisoblanadi. Transport qishloq xo'jalik mahsulotlari iste'molchilariga va o'z navbatida qishloq xo'jaligiga zarur sanoat mahsulotlarini yetkazib beradi. Transport yo'llari zichlik va transport vositalarining rivojlanish darajasi qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalarining joylashuvini ham ma'lum darajada belgilab beradi. Arzon qishloq xo'jalik mahsulotlarini iste'molchilarga tashish imkoniyatlari ortadi. Mamlakat va uning mintaqalarida barpo etilgan transport tizimi qishloq xo'jalik mahsulotlarini uzoq masofalarga tashish jarayonida mahsulot tannarhiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mana shu sababli qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishda yetishtiriladigan mahsulotlarni iste'molchilarga, shuningdek sanoat mahsulotlarini qishloq xo'jaligiga yetkazib berish ham hisobga olinadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot ham qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalarining joylashishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligida mexanizatsiya,

elektrlashtirish darajasi texnik vositalarning o'sishi natijasida ortadi, mehnat unumdorligining o'sishiga sabab bo'ladi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot ta'sirida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga industrial tarmoqlar kirib keldi, sanoat korxonalari bilan aloqadorligi kuchaydi, mehnat taqsimoti chuqurlashdi, turli mintaqalarda yangi oziq-ovqat va xom ashyo bazalari tashkil etiladi.

Mehnat resurslarini qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalarining joylashuviga katta ta'sir ko'rsatadi. Nafaqat qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida, balki boshqa ishlab chiqarish jarayonlarini ishchi kuchisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Aholi zich joylashgan hududlarda mehnatni ko'p talab qiluvchi qishloq xo'jalik tarmoqlari joylashtiriladi. Sholi, paxta, choy, kofe kabi sermehnat ekinlarni yetishtirish bunga misol bo'la oladi. Aholi siyrak tarqalgan hududlarda ekstensiv xo'jaliklar tashkil etiladi.

Dehqonchilik va chorvachilik ishlab chiqarish korxonalari, ekin maydonlari tarkibi mavjud mehnat resurslarini hisobga olgan holda joylashtirilishi lozim. Aholining tabiiy-tarixiy malaka va ko'nikmalari ham mintaqalar bo'yicha qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va ixtisoslashuviga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston aholisining tabiiy o'sishi nisbatan yuqori bo'lgani uchun mehnat resurslari bilan yuqori darajada ta'minlangan mamlakatlardan biridir. Mehnat resurslari ayniqsa qishloq joylarida ko'pdir. Shuning uchun ularni qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ishchi o'rinlari orqali ish bilan ta'minlash mumkin.

Ekologik omilning qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalarining joylashtirilishiga ta'siri ortib bormoqda. Polietilen plyonkalar, mineral o'g'itlar, pestitsidlarning me'yoridan ortiq ishlatilishi, qishloq xo'jalik transport vositalarining atrof-muhitga salbiy ta'siri, qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi biologik va kimyoviy kurash, almashlab ekish sistemasiga rioya qilmaslik, chorva mollarining oziqlanish me'yorida boqilishi ekologik omilning kuchayishiga olib keladi.

## **II.Bob. Farg`ona vodiysi qishloq xo`jaligining hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi**

### **II.1. Qishloq xo`jaligi ixtisoslashuvining o`ziga xos xususiyatlari.**

Hozirgi zamon qishloq xujalik geografiyasi ko`pgina omillarga boG`lik bo`lib, bular iqtisodiy, tabiiy va siyosiy. qishloq ho`jalik ishlab chikarishning geografik joylashishiga asosiy ta'sir ko`rsatuvchi omillardan biri tabiiy, iqtisodiy omillardir. Qishloq ho`jaligini joylashishida tabiiy sharoit katta ta'sir ko`rsatadi, uning rivojlanishi uchun uriG`lik, issiqlik, namlik va turoqqa ozuqa moddalari zarur. qulay agroiklim, suv, turoq resurslari quruqlikning hamma joyda ham uchramaydi. Turoq masalan, bir turdagi qishloq hujalik ekini uchun qulay bo`lsa, boshqasi uchun esa noqulay bo`lishi mumkin.

Muayyan mahsulot ishlab chiqarishga moslashish jarayoniga ixtisoslashuv deyiladi. Xo`jalik ishlab chiqaradigan mahsulotlar turi qancha kam bo`lsa, uning ixtisoslashuv darajasi shuncha yuqori bo`ladi. Mehnat taqsimotining chuqurlashishi ixtisoslashish darajasining oshishiga olib keladi.

Qishloq xo`jaligidagi o`ziga xos xususiyatlar ixtisoslashuvda ham namoyon bo`ladi. Unda tabiiy, iqtisodiy shart-sharoitlar, ishlab chiqarishdagi mavsumiylik, qishloq xo`jaligining juda katta hududlarda tarqalishi, aylanma mablaG`larning aylanish tezligi, chiqindisiz texnologiyaga o`tish va boshqa omillar hisobga olinadi.

Ishlab chiqarishning eng asosiy va qo`shimcha tarmoqlarini shakllantirishda ularni yaxlit holda olish, kam mehnat va mablaG` sarf qilgan holda ko`proq tovar mahsuloti yaratish pirovard maqsad hisoblanadi.

Mehnat taqsimoti ta'sirida ishlab chiqarish ixtisoslashuvi vujudga keladi. qishloq xo`jaligi korxonasining bir turdagi tovar ahamiyatiga ega bo`lgan mahsulot (paxta, don, qand lavlagi, go`sht, sut, teri, jun, tuxum va boshqalar) ishlab chiqarishi bo`yicha ishtirokiga ixtisoslashuv deyiladi.

Qishloq xo`jaligi iqtisodiy qonunlar, jumladan bozor iqtisodiyoti, rejali iqtisodiyot va boshqa iqtisodiy qonuniyatlar asosida rivojlanib boradi.

Qishloq xo`jaligi ixtisoslashuvi mahsulotlar miqdori va sifatining ortishi, er, suv, iqlim, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, fan-texnikaning eng so`nggi yutuqlarini, eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni hamda ilmiy xo`jaliklar tajribalarini amaliyotda qo`llash natijasida iqtisodiy samaradorlikni yuqori bo`lishiga, mehnat unumdorligining ortishiga olib keladi.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlari mulkchilikning turli shakllarida qishloq xo`jaligi korxonalarini tomonidan er, suv, iqlim va tabiiy sharoiti xilma-xil bo`lgan ulkan mintaqalarda etishtiriladi. Mehnat taqsimoti mana shu hududlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanganlik darajasini o`zida aks ettiradi.

Qishloq xo`jaligi korxonalarini faoliyati bu korxonaning ijtimoiy mehnat taqsimotidagi o`rni va mavqeini belgilab beruvchi muayyan turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratiladi. ASM korxonalarini bir butun ishlab chiqarish tarmoqiga ega bo`lib, ushbu ishlab chiqarish tarmoqlari qishloq xo`jaligi korxonasining bir yoki undan ko`p bo`lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvidan, mavjud ishlab chiqarish texnika va texnologiyasi, asosiy va aylanma mablag`larining katta-kichikligi, ishchi kuchlarining soni va malakasi bilan farq qiladi.

Qishloq xo`jaligi tarmoqlari iqtisodiy ahamiyatiga ko`ra bosh (asosiy), qo`shimcha va yordamchi turlarga bo`linadi.

Bosh yoki etakchi tarmoqlar tovar mahsulotlarini yaratishda asosiy o`rinni egallaydi va ular xo`jalikning ixtisoslashuvini belgilab beradi. Asosiy tarmoqlar kompleks ixtisoslashgan xo`jaliklarda bitta bo`ladi.

Qo`shimcha tarmoqlar ham tovar tarmoqlari turkumiga kiradi. Ular qishloq xo`jaligi mahsulotlari sonini ko`paytirish uchun tabiiy-iqlimiy va mehnat resurslaridan, ishlab chiqarish vositalaridan, texnikadan unumli foydalanish, ishlab chiqarishdagi mavsumiylikni yumshatishga olib keladi.

Yordamchi tarmoqlar garchi o`zlari qishloq xo`jaligi bilan bog`liq bo`lmasalarda, ular asosiy va qo`shimcha tarmoqlarda ishlab chiqarish jarayonining bir maromda kechishini ta'minlashi, etakchi va qo`shimcha

tarmoqlarda yaratilayotgan mahsulotlarning tovar xususiyatlarini yanada oshirish uchun yordam ko`rsatishlari talab etiladi.

Yuqorida ko`rsatilgan uch tarmoq (asosiy, qo`shimcha va yordamchi) hududning tabiiy-iqtisodiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda mamlakat va xo`jalikning ichki ehtiyojlarini to`laroq qondirishi va butun ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini ko`proq ta'minlashga imkon beradigan darajada bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda rivojlantirishga erishish zarur. qishloq xo`jaligi korxonalarini ixtisoslashtirilayotganda quyidagi qonuniyatlar hisobga olinadi:

1. Tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish bo`yicha iloji boricha kam mehnat va kam mablag` sarflab, mumkin qadar ko`p miqdorda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etishtirishga erishish;

2. Yil davomida er, suv, iqlim, mehnat va moliyaviy resurlardan samarali va bir tekis foydalanish;

3. Fan-texnikaning eng so`nggi yutuqlaridan, ilG`or tajribalaridan va texnikadan, ishlab chiqarishning boshqa vositalaridan yuqori samaradorlikda foydalanish;

4. Aylanma mablag`larning oborotini oshirish;

5. Qishloq xo`jaligining ikkilamchi mahsulotlari va chiqindilari (g`o`zapoya, somon, go`ng) dan kengroq foydalanish;

6. Qishloq xo`jaligini yuqori darajada mexanizatsiyalash va elektrlashtirish.

Respublika xo`jaliklarida ishlab chiqarishning quyidagi tiplari ko`p tarqalgan:

- paxtachilik;
- g`allachilik-chorvachilik;
- bog`dorchilik (qorako`lchilik);
- bog`dorchilik-sabzavotchilik;
- sholichilik;
- bog`dorchilik-uzumchilik;
- sabzavotchilik;
- parrandachilik;



- shahar atrofi xo`jaligi (sabzavot-sut etishtirish).

Mazkur ishlab chiqarish tiplari intensivlashish darajasi va er maydoni birligidan olinadigan mahsulot bo`yicha ham bir-biridan farq qiladi. Bundan ko`rinadiki, ularning ixtisoslashuv darajasi ham turlicha bo`ladi.

Qishloq xo`jaligida ixtisoslashuvning tor va kompleks variantlari (turlari) dan tashqari, ichki (mikro), mintaqaviy (mezo) va tashqi (xalqaro-makro) ixtisoslashuv turlari ham ajratiladi.

Ichki ixtisoslashuv-xo`jalik va uning bo`linmalari (bo`limlar, fermalar, fermer xo`jaliklar, oilaviy pudratchilar va boshqalar) o`rtasida tashkil etilgan mehnat taqsimoti. Ular muayyan turdagi mahsulot ishlab chiqaradi. Masalan, chorvachilik fermasidagi birinchi bo`lim sut, ikkinchi bo`lim go`sht etishtiradi.

Qishloq xo`jaligi ixtisoslashuvining shakllaridan biri mintaqalar (viloyat, tuman) bo`yicha ixtisoslashuvdir. O`zbekiston Respublikasida mintaqaviy ixtisoslashuvga quyidagilar misol bo`la oladi. Qoraqalpog`iston Respublikasi va Xorazm viloyati-sholi, Samarqand viloyati mayiz, qashqardaryo viloyati-don, Surxondaryo viloyati subtropik mevalar, Farg`ona viloyati bodring, o`rik va anor, Xorazm, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari qovun-tarvuz etishtirishga ixtisoslashgan.

Qishloq xo`jaligi ixtisoslashuvining shakllaridan yana biri xalqaro ixtisoslashuvdir. Qishloq xo`jaligida tovar ishlab chiqarishining rivojlanishi xalqaro mehnat taqsimotini keltirib chiqardi. Xalqaro mehnat taqsimoti har bir mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari va iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda tovar ishlab chiqarishini yo`lga qo`yadi.

Ixtisoslashuv mamlakat, viloyat, tumanlarning aynan xo`jalikning qaysi tarmog`i va qanday mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan mashg`ul (band) ekanligini o`zida aks ettiradi. Demak, ixtisoslashuv orqali hududlarda qishloq xo`jaligida qaysi tarmoqning rivojlanganligi va ustun (etakchi) ekanligini, qaysi turdagi mahsulotlar bilan ishtirok etayotganligini aniqlab olish mumkin.




Qishloq xo`jaligida ixtisoslashuv muhim ahamiyatga ega. Ixtisoslashuv quyidagi afzalliklarga ega:

- moliyaviy va moddiy resurlarni umumlashtirish va safarbar qilish asosida iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan ko`proq daromad keltiradigan mahsulotlar ishlab chiqariladi;
- ishlab chiqarish jarayoni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish yo`li bilan takomillashib boradi va rivojlanishning industrial taraqqiyot yo`liga o`taladi;
- ishlab chiqarish madaniyati o`sadi, mehnat ilmiy asosda tashkil etiladi, kadrlar malakasini oshirishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi;
- fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida qishloq xo`jaligida kasb-hunarlar tarkibi o`zgarib boradi. qishloq xo`jaligi uchun mutlaq yangi bo`lgan kasblar (operator, injener va boshqalar) vujudga keladi;
- aqliy va malakali jismoniy mehnat salmog`i ortib boradi.

Bu afzalliklar ta'sirida ixtisoslashuvning asosiy maqsadi-mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlikning ortishiga erishiladi.

Фарғона водийси агросаноат ҳудудий ишлаб чиқариш мажмуасининг ички

тузилиши



Bulardan tashqari, qishloq xo`jaligi ixtisoslashtirilganda birinchidan mehnat resurslaridan, ikkinchidan texnikadan, uchinchidan rahbarlik shtatlaridan foydalaniladi, to`rtinchidan tannarhi nisbatan arzon mahsulot etishtiriladi.

Jahonda bir qator mamlakatlar ana shunday tor ixtisoslashuvga moslashgan. Jumladan, Niderlandiya, Daniya, Germaniyadagi ma'lum bir xo`jaliklar yirik shohli qoramolchilikka, ya'ni sut va go`sht etishtirishga, ayrimlari (Frantsiya) pishloq, ayrimlari esa em-xashak etishtirishga moslashgan. Bu tor ixtisoslashtirish uzoq muddatga rejalashtirilgan.

Qishloq xo`jaligi ixtisoslashuvining ikkinchi varianti kompleks ixtisoslashuvdir. Kompleks ixtisoslashuvda bir qancha tarmoqlar bir vaqtda parallel rivojlantiriladi. Bunday sharoitda ma'lum bir hudud eridan, mehnat resurslaridan, xo`jalikning iqtisodiy quvvatidan to`la foydalanishda shu usul qo`l keladi.

Faqat bir ekin ekish bilan shuG`ullangan mamlakatlarda monokultura (yakkahokimlik) kelib chiqadi.

Qutb mamlakatlari qishloq hujaligi ishlab chiqarishi uchun unchalik qulay emas. Subtropik va tropiklarda esa issiqlik va yoruG`likning ko`p bo`lishi bilan, namlik etishmaydi. Dengiz iqlimiga xos mamlakatlar, ya'ni moo`tadil iqlimli mamlakatlarda namlik etarli, ammo issiqlik etishmaydi.

Qishloq xo`jaligi ekinlari hosildorligiga xali ham iqlim sharoiti etarli ta'sir ko`rsatib kelmoqda. Tabiat injiqliklari dehqonchilikka katta zarar etkazmoqda. Yer sharining ayrim qismlarida noqulay qish, qirovlar, ob-havoni keskin o`zgarishi, qurgo`qchilik, do`l, sel, kuchli shamollar va boshqalar, bularning hammasi dunyo qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi mahsulot hajmiga ta'sir ko`rsatadi.

Mikroiqlim hususiyatlari, hatto rayonlarning ham ob-havo xususiyatlari farqlanganligi uchun ham, ekinlarni tanlashda ularni inobatga olish va agrotexnika qoidalariga rioya qilish zarur. qishloq xo`jaligi joylashishiga uning tarmoqlari ixtisoslashishi ham ta'sir ko`rsatadi.

Ba'zi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining turli rayonlarda ishlab chiqarish ham ularning transport-geografik holatiga, istemolchiga yaqinligi va qishloq xo'jaligi mahsulotining sanoat qayta ishlashiga ham bog'liq.

Jumladan, kofe, kakao plantatsiyalari odatda dengiz sohillariga, daryo va temir yo'l yaqinlarida joylashtiriladi, chunki bu ekinlarni ishlab chiqarish eksport yo'nalishiga mo'ljallangan. Texnika taraqqiyotiga qaramasdan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi rivojlangan mamlakatlarda hozir ham bir xilda emas, ayniqsa bu holat rivojlanayotgan davlatlarda, hosilsiz yillarda ochlikka va dunyo iqtisodiyotini boshqa yomon holatlarga olib keladi (narxlarni o'sishi, zahiralarni kamayishi va boshqalar), bularni bartaraf qilish ko'p vaqtni talab qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda mahsulot ishlab chiqarish sur'ati, aholi o'sish sur'ati bilan barobar, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini yaxshilash, o'zining ishlab chiqarishi hisobiga bu mamlakatlarda yo'q. Shuning uchun ham ochlik va to'yib ovqat emaslik darajasini pastligini hisobga olish kerak. Aholi zich joylashgan rayonlarda bo'sh yerlarni tanqisligi tufayli kam kapital mablag'lar sarf qilish hisobiga ekstensiv dunyo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish cheklangandir. Ayrim hollarda esa yirik yer egalari tomonidan erlarni o'zlashtirish sun'iy ravishda yer resurslari tanqisligini yuzaga keltirish maqsadida to'xtatiladi, ijara haqini oshiradi va arzon ish kuchini ta'minlash maqsadida qiladi.

Lotin Amerikasi, tropik Afrika mamlakatlarida va boshqa rayonlarda mavjud bo'lgan yirik bo'sh er resurslaridan oqilona foydalanish uchun ko'plab mablag'lar talab qilinadi (yuksak texnika bazasida), qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda va unga yaqin hisoblangan - transport, aholini joylashtirish, suv ta'minoti, melioratsiya va hokazolarni ham inobatga olish zarur. Bunday keng miqyosli ishlarni rivojlanayotgan mamlakatlar faqatgina birgalikda, uyushgan holdagina bajarishlari mumkin.

Yirik iqtisodiy jihatdan rivojlangan kapitalistik davlatlarda qishloq xo'jaligi bilan sanoat rivojlanishini vertikal holati va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishdan yirik foyda olish maqsadida monopolistik kapital hisobiga, mayda hamda o'rta fermer xo'jaliklarini xonavayron qilish hisobga amalga oshiriladi. 1990 yilda

AQShda fermalar soni 2.7 mln. bo`lgan bo`lsa, 2008 yilda 1.0 mln ga qisqardi, shu jumladan (mahsulot) tovar fermalari — 1.6 mln. ga yaqin va bundan keyin ham tovar fermalari sonini qisqartirish va buning hisobiga ishlab chiqarishni o`rtacha ko`paytirish ko`zda tutilgan.

Yirik monopolistik kapital egalari qishloq xo`jaligiga chuqur kirib boribgina qolmasdan, mashinalar, mineral o`g`itlar sotish, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sotib olish, banklardan kredit olib berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki qishloq xo`jalik erlarini sotishni ham qo`llarida olib qolishiga xarakat qilmoqdalar.

Rivojlanayotgan davlatlar xukumati yirik xo`jaliklarga iqtisodiy ko`mak berish (imtiyozli bank kreditlari olib berish, texnikani takomillashtirish, davlat hisobiga erlarni meliorativ holatini yaxshilash va hokazo), qishloq xo`jalik erlarini yiriklashtirish va qishloq xo`jalik ishlab chiqarishni to`lash bilan birgalikda mayda xo`jaliklarni huquq va imkoniyatlarini cheklashtirmoqdalar. Bunday xo`jalik yuritish tadbirlari (kichik va o`rta dexqonlarini sindirish) yirik xo`jaliklarni barpo qilish, texnikaviy jihozlangan xo`jaliklar va tovar mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko`paytirishga yo`naltirilgan.

Rivojlanayotgan ko`pgina mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish darajasini va ularda mavjud agrar munosabatlarni qayta o`zgartirish va modernizatsiya qilish bo`yicha turlicha holatlarni qurish mumkin. Bu mamlakatlarda boshqarish qiyin bo`lgan holatlarni, agrar munosabatlarning murakkabligi, mablag`larning etishmasligi va ularni kiritmaslik qishloq xo`jalik ishlab chiqarishi rivojlanishini sustlashtirmoqda. Shu guruhga kiruvchi ayrim mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan yuqori bo`lgan (m.: Argentina) yirik yer egaligi hisobiga (mahalliy mahsulotlar va chet el kapitali hisobiga) tovar mahsuloti ishlab chiqarish shakllandi. Bundan tashqari rivojlanayotgan mamlakatlar ham borki (asosan yaqinda mustamlakadan ozod bo`lgan) ularda qishloq xo`jaligi rivojlanishi chet el kapitali bilan bog`liq bo`lib, ular asosan erlardan vaxshiylarcha foydalanib, eksport qiladigan ekinlarni ishlab chiqarishni tashkil qilishgan, keyinchalik esa texnikaviy takomillashgan

plantatsiyalarda, har ikkala holda ham mahalliy aholini ezish hisobiga, asosan foydani asosiy qismini chetga olib ketishgan.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarning qishloq xo`jaligi ilmiy texnika revolyuttsiyasi bilan bog`liq bo`lib, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirishga, importni qisqartirib yoki to`xtatishga imkon beribgina qolmay, o`zlari eksort qila boshladilar. Masalan: AQSh - soya; Frantsiya – bug`doy va sholi; GFR, Frantsiya - quruq sut; Yaponiya - sholi va hokazo.

Natijada oxirgi 15-20 yil ichida rivojlangan mamlakatlarni dunyo oziq-ovqat mahsulotlarini eksort qilish bo`yicha salmog`i o`tdi, aksincha rivojlanayotgan malakatlarning salmog`i birmuncha qisqardi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko`piga xos bo`lgan xususiyatlardan biri bo`lgan to`yib ovqat emaslik va ocharchilikning keng tarqalishi faqatgina tabiiy sharoitning noqulayligi sababli yoki yangi maltuschilik tushunchasi, aholini «yuqori» tabiiy o`shishi bilan bog`liq emas. Balki, hozirgi zamon texnika tarraqqiyotining sustligi qishloq xo`jaligining joylashishiga bog`liqdir.

Bundan tashqari rivojlanayotgan mamlakatlarning umumiy iqtisodiy qoloqlik darajasi mahalliy noqulay tabiiy sharoitlarni yaxshilash imkoniyatlarini bermayapti natijada ishlab chiqarishni rivojlantirishga imkoniyat yaratilmayapti. Qoloqlikning asosiy ildizi o`tmishda bu mamlakatlarning rivojlangan mamlakatlarga qaram qilish va hozirda ham ularni xom ashyo etkazib beruvchi bo`lib qolishiga intilishi bilan bog`langandir.

Respublika viloyatlarida aholining tez o`shishi va juda zich joylashganligi, er va suv resurslarini cheklanganli, oziq – ovqat mahsulotlariga bo`lgan talabining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Agrar sohani isoh qilish va oziq – ovqat bozori shakllanishning ilmiy – uslubiy asoslarini ishlab chiqish va amaliy takliflar tayyorlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo`lib qolmoqda.

Agrar tarmoqda isloxatlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyoni erkinlashtirish sharoitida mintaqalar mustaqilligining oshishi bozor munosabatlarining rivojlanganlik darajasi hamda bevosita mintaqada qanday darajada bozor tamoyillarida faoliyat yuritishga erishilganligi bilan belgilanadi. Bu esa, bevosita

oziq – ovqat bozorini rivojlantirishni taqazo etadi. Avvalambor oziq - ovqat bozorining shakllanishi, umuman bozorning boshqa turlarining ham shakllanishi va rivojlanishga bog`liq bo`ladi. Vaholanki, oziq – ovqat bozaori alohida, ajralga tarzda faoliyat yurita olmaydi.

Shuning uchun ham mintaqavii bozorlar tizimini shakllantirish ularning o`zaro mutannosibligini ta'minlash orqali amalga oshirilmog`i lozim. Biroq, oziq – ovqat bozorining o`ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan xolda uning shakllanishi va rivojlanishiga alohida yondashuv talab etiladi. Bu borada har bir mintaqaning salohiyati, muhim omil hisoblanadi. Respublika o`ziga xos demografik xususiyatlarni e'tiborga olingan xolda oziq – ovqat bozorini shakllantirish va rivojlantirish quyidagi yo`nalishlar bo`yicha olib borilishi kerak:

- mintaqada qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va uning o`zida qayta ishlashni rivojlantirish orqali sifatli oziq – ovqatlar bilan o`zini – o`zi ta'minlash;
- ishlab chiqarilgan oziq – ovqat tovarlari savdosini rivojlantirish uchun shart – sharoit yaratishning tashkili, iqtisodiy va huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda keng qamrovli infratuzilma ob'ektlarini tashkil etish.

Mintaqada oziq – ovqat bozorining rivojlanishida qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning barqaror o`sishi va qayta ishlashni miqdor va sifat jihatidan yuqori darajada bo`lishiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun:

- respublika va mahalliy byudjetidan qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishalsh sanoatiga mamlakat milliy daromatini shakllantirishdagi ulishiga mos xolda investitsiyalar hajmini oshirish;
- qishloq xo`jaligi, oziq – ovqat sanoati, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini uzoq muddatli saqlash sohasida sifat jihatidan yangi texnologiyalarni aniqlovchi ilmiy – texnikaviy yo`nalishlarni ustivor rivojlantirish va davlat tomonidan har tomonlama qo`lab – quvvatlash;
- chorvachilik, parrandachilik va qayta ishlash sanoatida ishlab chiqarish quvvatlaridan maksimal foydalanayotgan, shirkat, fermer, dehqon xo`jaliklari yoki



kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hisoblangan turli mulk shaklidagi tashkilotlarni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash;

- go'sht va sut mahsulotlarining kelajakdagi strategik ba'zasi rivojlanishini ta'minlovchi chorva naslchiligini davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash;

- ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining (ayniqsa dehqon xo'jaliklarida) tovarliligi darajasini oshirish, realizatsiyaning ko'p kanalli tizimini rivojlantirish va mos infratuzilmani shakllantirish hamda uning faoliyati uchun bozor tamoyillariga mos tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy asoslar yaratish;

- iqtisodiyotning agrar sektorida maxsus kredit moliya tizimini rivojlantirish va oziq – ovqat bozoriga tijorat investitsiyalarini jalb etishni keng yo'lga qo'yish zarur.

Oziq – ovqatlarning miqdor jihatidan etraliligi imkoniyatini savdo tarmoqlarida aholi uchun zarur miqdorda turli xildagi mahsulotlarning mavjudligi hamda barcha toifadagi iste'molchilarga etkazib berish orqali kafolatlash kerak. Buning uchun esa, avvalombor, ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlash, oziq – ovqat bozori sub'ektlari faoliyatini rivojlantirish vanihoyat, to'laqonli raqobat muhitini yaratish zarur.

Davlatimiz rahbarining 2018 yil 28 fevraldagi “Paxta xom ashyosi va boshqoli don yetishtirishni moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori tarmoqdagi bunday o'zgarishning huquqiy kafolatidir. Unda tuproq unumdorligi past bo'lgan, oxirgi 3 yil mobaynida kam hosil olingan yerlarda paxta yetishtirmasligi aniq-tiniq belgilab qo'yildi.

2018 yilda respublikamiz bo'yicha 1 million 71 ming gektarga chigit ekilyapti,-deydi Qishloq xo'jaligi vazirligi paxtachilik va texnika ekinlarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i o'rin bosari To'xtamuradov Mayliyev –Bu paxta maydonlari o'tgan yildagiga nisbatan salkam 135 ming gektar qisqartirildi,deganidir. Jumladan, past rentabelli, yer sharoiti va suv ta'minoti og'ir bo'lgan qariyb 100 ming gektar maydon paxtadan bo'shatildi.Ushbu maydonlarning 5.1 ming gektariga intensiv bog', 2.3 ming gektariga tokzor, 811

gektariga issiqxonalar barpo etilsa, qolgan qismiga sabzavot, poliz , dukkakli moyli ozuqa hamda oziq-ovqat ekinlari joylashtiriladi.

Umuman olganda, joriy yilda yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlash, eksport ko'rsatgichlarini yaxshilash maqsadida asosiy, oraliq va takroriy maydonlarga jami 17.8million tonna mahsulot hususan,7.1million tonna sabzavot, 2.2 million tonna poliz 95.8 ming tonna moyli, 697.8 ming tonna dukkakli mahsulotlar, shunigdek, 1.5 million tonna kartoshka hamda 6.1 million tonna qishloq xo'jaligining boshqa mahsulotlari yetishtirish mo'jalangan. Buning uchun zarur yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar, urug'lik va boshqa moddiy resurslar hisob- kitob qilinib, o'z vaqtida yetkazib berish chora-tadbirlari ko'rilyapti. Bularning barchasi soha oldiga qo'yilayotgan talab- oziq- ovqat mahsulotlari importini keskin kamaytirish , eksportni ko'paytirishga hizmat qiladi.

Iqtisodiyot vazirligidan ma'lum qilishlaricha, 2017 yil yakunlariga ko'ra, past rentabelli yerlarda yetishtirilgan paxtaning 1 gektaridan o'rtacha 0.9 million so'm daromad olingan, xolos. Holbuki, ushbu joyga ekiladigan sabzavotdan 5.2 million so'm, kartoshkadan 5.9 million so'm polizdan 4.1 million so'm mevadani 1.8 million so'm uzumdan 2 million so'm, moyli ekinlardan esa 1.2 million so'mdan ziyod daromad olish mumkin. Bu, o'z navbatida, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga yildan-yilga o'sib borayotgan talabni to'liqroq qondirish, qayta ishlash va eksportchi korxonalarining, qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish imkonini beradi.

Shu bois Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 apreldagi tegishli qaroriga muvofiq, Iqtisodiyot vazirligi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda meva-sabzavot, uzum, poliz va dukkakli don mahsulotlari yetishtirish tannarxidan kelib chiqib, tavsiyafiy biznes-rejalar ishlab chiqdi. Bunda 1 gektar maydonda ekin yetishtirish, amalga oshiriladigan agrotexnika tadbirlari va moddiy-texnika resurslari, mehnat sarfi, soliq hamda boshqa xarajatlar hisob- kitobi to'liqqamrab olingan. Unga ko'ra, 1 gektar maydonda sabzavot ekinlarini parvarishlar xarajati 12.8 million so'm bo'lib, hosildorlik o'rtacha 220 sentnerni tashkil etsa, olinadigan jami 22 tonna mahsulotning 1 tonnasi tannarxi 583 ming sumga tushadi.

Yetishtirilgan mahsulot o'rtacha 800 ming so'mdan sotilgan taqdirda jami daromad 17.6 million so'm, shundan sof foyda 4.8 million so'mga yetadi, rentabellik esa 37 foizga ta'minlanadi.

Past rentabelli paxta maydonlarini maqbullashtirishi moddiy va tabiiy resurslarni tejashda ham qo'l keladi. Sababi, barpo etiladigan intensiv bog'largatomchilab sug'orish tizimi joriy qilinishi evaziga uning har gektaridan 2.5-3.5 kub metr, tokzorlarda esa 1.2-1.8 kub suv tejaladi. Bundan tashqari, 130 ming tonna paxta o'rniga qo'shimcha 430 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot, 350 ming tonnadan ortiq moyli va ozuqa, hosili olinadi, 20 mingga yaqin ish o'rinlari ochiladi.

Yana bir muhim jihati, unumdorligi past yerlarda g'o'zani joylashtirmaslik hisobiga o'rtacha hosildorlik o'tgan yildagi 27 sentnerlik ko'rsatgichdan joriy yilning o'zida 29 sentnergacha ko'tarilishi kutilmoqda. Natijada 1 gektarda paxta xom ashyosi yatishtirish xarajatlari o'rtacha 5.1 million so'mdan 8.6 million so'mgacha ko'paygani holda rentabellik 0.1 foizdan 10.2 foizgacha oshadi.

Agrar sohada boshlangan islohatlar uzviyligi, izchiligi ta'minlanishi g'oyatda ahamiyatli. Negaki, samara yana shunda seziladi. Shu ma'noda, paxta maydonlarini maqbullashtirish harakati davomiyligi bilan dehqonu fermerlar daromadini oshirishda mustahkam poydevor yaratmoqda.

Gap shundaki, paxta maydonlari 2019 yilda 37.5 ming, 2020 yilda esa 33 ming gektarga qisqartiriladi. Bo'shagan yerlarga davlatimiz rahbarining tavsiyasi bo'yicha serdaromad va eksportbop bo'lgan ekinlar joylashtiriladi. Masalan, respublikamiz shimoliy hududlarida sholi va poliz, yurtimiz janubi va Samarqandda kartoshka hamda karam, vodiylarida esa pomidor, bodring, lavlagi va ko'katlar ekish fermer xo'jaliklariga iqtisodiy jihatdan ko'proq foyda keltiradi.

Shu o'rinda aytish joizki, soha mutaxassislari va olimlar, tajribali eksportyorlar tomonidan tavsiya etilayotgan serhosil hamda tashqi bozorda xaridorgir qishloq xo'jaligi ekinlari ro'yhatida achchiq qalampirga alohida o'rin

berilgan. Bu bejiz emas, albatta. Chunki past rentabelli maydonlarda 60-80 kunda yetiladigan qalampir parvarishlansa, koni foyda.

Ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda dunyo bo'yicha 4.4 million gektar maydonda achchiq qalampir ekilib, yalpi hosil salmog'i 68.3 million tonnadan oshadi. Boshqacha aytganda, ushbu ekin hosildorligi gektariga o'rtacha 15-20 tonnani tashkil etadi. Agar uning 5 kiligrammidan 1 kilogramm quritilgan achchiq qalampir olish mumkinligini nazarda tutsak, qalampir paykalining har gektaridan 16 tonna hosil yig'ishtirilgan taqdirda 3.2 tonna quritilgan achchiq qalampir tayyorlash mumkinligi oydinlashadi. Ushbu mahsulot jahon bozorida o'ta xaridorgir bo'lib, uning 1 tonnasi 8.6 ming AQSH dollari atrofida baholanadi. E'tibordan butkul chetda qolib ketgan sabzavotchilikning mazkur yo'nalishidan buncha daromad topish mumkinligi, ochig'i, paxtakor xalqimizning hayoliga ham kelmagandi.

Hozirgi paytda achchiq qalampir savdosidan olinadigan daromadning asosiy qismi Indoneziya, Xitoy va Meksika mirishkorlari qo'lga tegyapti. Yurtimizda xorij tajribasini o'rgangan holda, achchiq qalampir yetishtirishni ko'paytirish bo'yicha boshlangan amaliy sayharakatlar, hademay, ular safiga qo'shilishimizga umid uyg'otmoqda.

Bunday deyishimizning boisi shundaki, joriy yilning o'zida paxtadan bo'shagan maydonlarning salkam 2 ming 300 gektariga achchiq qalampir joylashtirilmoqda. Qishloq xo'jaligi vazirligi mutaxassislarining aytishicha, xususan, Farg'onada 770, Surxondaryoda 547, Toshkent viloyatida 431, Xorazimda 175 gektarda ushbu ziroatning jahon bozorida xaridorgir bo'lgan xorijiy navlari ekilayotir. Etiborlisi, dehqon va fermer xo'jaliklari, shuningdek, tomorqachilarga issiqxonalarda parvarishlangan tayyor qalampir nihollari tarqatilyapti.

Keyingi paytda jahon bozorida paxta tolasiga bo'lgan talabga qarab, uning bahosi o'zgarib turibdi. Ammo sintetik, hatto bambuk tolalari sanoatda keng qo'llanilayotgan hozirgi taraqqiyotning innlvacion bosqichida ham paxta tolasiga ehtiyoj aytarli susaygani yo'q. Aksincha, aholi sonining ko'payishi, daromadi

ortib, turmushi farovonlashuvi kabi omillar tabiiy mahsulotga rag'batni kuchaytirayotir.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, 1 kilogramm kalava ip olish uchun 1.15 kilogramm paxta tolasi qayta ishlanadi. Shuncha kalava ipdan 5 metr gazlama yoki 0.93 kilogramm trikotaj mato to'qiladi. O'z navbatida, trikotaj matoning har bir kilogrammidan o'rtacha 5-6 ta tayyor kiyim tikish mumkin. Bunu pulga chaqadigan bo'lsak, kalava ipning bahosi 20-22 ming so'm, trikotaj matoniki 30-35 ming so'mni tashkil etadi, xolos. U tayyor mahsulotga aylantirilgach eski qiymati keskin oshib, o'rtacha 200 ming so'mga aylanadi!

Shuning uchun davlatimiz rahbari yaqinda Jizzax viloyat amalga oshirgan safari davomida soha mutasaddilari oldiga qat'iy talab, aniq vazifa qo'ydi: bundan buyog'iga chetga xom ashyo sotilmaydi, u qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotga aylantirilgan holda eksport qilinadi. Ushbu maqsadga qachon erishamiz?

“O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasidan oligan ma'lumotlarda keltirilishicha, yiliga 1 million tonnaga yaqin tola olinadi. Hozirgi kunda mavjud quvvatlar esa 706.2 ming tonna tolani qayta ishlashga mo'jalangan bo'lib, bu respublikada yetishtirilgan paxta tolasining 72.4 foizini tashkil etadi.

Bugungi islohatlardan ko'zlangan maqsad, shubhasiz, mashaqqatli mehnat evaziga yaratilgan xom ashyo qiymatini oshirish, ko'proq foyda ko'rishdir,- deydi

“O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasi mintaqalarda to'qimachilik sanoatini rivojlantirish bo'limi boshlig'i Sodiq Boboqulov.-Paxtani tola ko'rinishida emas, balki tayyor mahsulot sifatida sotsak, daromad ortadi. Shuning uchun qayta ishlash hajmi yil sayin oshirilmoqda. Bu boradagi o'sish ko'rsatkichlarini anglash uchun mustaqilikning dastlabki yillarida qayta ishlash hajmi atigi 5-7 foiz atrofida bo'lgani eslash kifoya. Yurtimiz sanoatchilari 2018 yilda 469.6 ming tonna kalava ip, 305.2 million kvadrat metr gazlama, 93.1 ming tonna trikotaj mato, 540.2 millionta tayyor tikuv mahsulotlari va 84.7 million juft paypoq ishlab chiqarishni rejalashtirilgan.

Bu raqam kelgusida ortib boraveradi. Sababi, 2018-2021 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va yangi korxonalarni bunyod etish hisobiga yetishtirilgan paxta tolasini o'zimizda to'liq qayta ishlash quvvatlari (977.8 ming tonna ) yaratiladi. Natijada ishlab ichiqarish hajmi 1.7 barobar, tayyor tikuvchilik mahsulotlari 2 barobar ortishi mo'jallanmoqda.

Ma'lumot o'rinnida aytish joizki, uyishma tomonidan 2018 yilda umumiy qiymati 461.3 million dollarga teng bo'lgan 28 ta yirik loyihani bajarish ishlariga kirishilgan. Ularning izchil ijrosi yillik mahsulot eksportini 189.4 million dollarga oshirish, 6.4 mingta yangi ish o'rni yaratish imkonini beradi.

Etishtirilayotgan paxta haqida ko'proq qayta ishlovchilar qayg'urishi kerakligini davrning o'zi taqozo qilyapti. Boisi agrar soha qanchalik sanoatlashsa, arzon va sifatli xom ashyo tayyorlash, unga qo'shimcha qiymat qo'shish hajmi shunchalik ortadi. Pirovardida davlatning iqtisodiy va eksport salohiyati ko'tarilib, qishloq ahlining turmush farovonligi yuksaladi. Shunning uchun hozirgi paytida paxtachilikda ilg'or texnologiyalarga asoslangan infratuzilmani yaratish, jahon tajribasida o'zini oqlagan klaster usulini joriy qilishga jiddiy e'tibor qaratilayapti. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 25 yanvardagi "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga asosan, sinov tariqasida 13 ta paxta-to'qimachilik klasteri tashkil etilmoqda. Ushbu loyihalarni afzaligi shundaki, paxta tolasini qayta ishlovchi korxonalar bevosita o'zlari xom ashyo yetishtirish jarayonlari ishtirokchisiga aylanadi. Bu qishloq xo'jaligi vasanoat integrasiyalashuvini jadallashtirib, korxonalarining sifatli tannarxi arzon, eng muhimi, ehtiyojga yarasha tola bilan to'liq ta'minlanishini kafotlaydi.

Sodda qilib aytganda, paxta-to'qimachilik klasteri, bu-yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan korxonalar majmui. Mazkur yangi tuzulma innovasion iqtisodiyotga o'tishning muhim bosqichisi sanaladi. Chunki bu yerda xom ashyo qayta ishlashning barcha bosqichidan o'tib, eksportbop tayyor mahsulotga aylanadi. Shu ma'noda, klasterlarga paxta xom ashyosi yetishtirish

uchun 140.9 ming gektar yer maydonlari ajratilayotgani agrar tarmoqdagi innovatsion qadam sifatida baholanmoqda.

Qishloq xo'jaligidagi bugungi o'zgarishlar, yani paxta maydonlarining qisqartirilishi zamirida paxtachilikni eng serdaromad tarmoqlaridan biriga aylantirishdek ezgu maqsad-muddao mujassamdir. Toki, fermer unumdorligi past yerlargachigit qadab,vaqtini, naqdini behudaga sovurmasin, tuproq iqlim sharoitiga mos ekin ekib, mehnatga yarasha foyda ko'rsin. Buning uchun dehqon va fermerlarga zarur shart-sharoitlar yaratish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash barobarida, paxta xarid narxi ham muttasil ravishda oshirilmoqda. Zotan, eksportni ko'paytirish, aholi, ayniqsa, xotin-qizlar bandligini ta'minlashda yetakchi kuch hisoblangan to'qimachilik va yengil sanoat salohiyatini yuksaltirish, qayta ishlash korxonalarini xom ashyo bilan barqaror ta'minlash mazkur tarmoq istiqboli bilan chambarchas bog'liqdir.

## **II.2. Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligining joylanishi va rivojlanishi**

Farg'ona mintaqasi mamlakatimiz hududiy mehnat taqsimotida qishloq xo'jaligi, xususan paxta va pilla, meva va uzum, sanoatida esa avtomobilsozlik, to'qimachilik, kimyo va neft kimyosiga ixtisoslashgan. Geografik o'rni, siyosiy geografik vaziyati transchegaraviy bo'lganligi sababli bu erda transport infratuzilmasi ancha rivojlangan. Bu aloqa yo'llari Tojikiston Respublikasining Sug'd, Qirg'iziston Respublikasining Botken, Jalolobod va O'sh viloyatlari bilan bog'langan.

Umuman olganda, rayon ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining zaif tomonlari uning ijobiy-kuchli tomonlariga nisbatan ustunlik qiladi; tabiiy resurslarga boy emasligi, anklav iqtisodiy va siyosiy geografik o'rni (u faqat tor masofada O'zbekistonning – Toshkent viloyati bilan chegaradosh) uning zaif tomonlari hisoblanadi. Ijobiy (kuchli) tomoni esa asosan mehnat resurslarining ko'pligidadir.

Ichki tarkibda hududi bo'yicha eng kattasi Namangan viloyati, iqtisodiy va demografik salohiyat esa eng kichik eng kichik Andijon viloyatida yuqori. Ayni

vaqtda nafaqat iqtisodiy rayonda, balki respublikamizda ham Namangan viloyati nisbatan sust rivojlangan.

1-jadval

**Andijon viloyati qishloq tumanlari haqida ba'zi ma'lumotlar  
(2015 yil holati)**

t/r	Qishloq tumanlari	Tashkil topgan yili	Ma'muriy markazi	Maydoni, ming kv. km	Aholisi, ming kishi	Aholi zichligi, 1 kv. km kishi
1	Andijon	24.12.1962	Kuyganyor sh.	0,37	235,0	635
2	Asaka	24.12.1962	Asaka sh.	0,26	295,2	1135
3	Baliqchi	24.12.1962	Baliqchi sh.	0,34	182,0	535
4	Buloqboshi	09.04.1992	Buloqboshi sh.	0,18	130,4	724
5	Bo`z	26.12.1964	Bo`z sh.	0,20	65,4	327
6	Jalaquduq	12.04.1973	Oxunboboev sh.	0,37	170,6	461
7	Izboskan	24.12.1962	Poytug` sh.	0,28	215,2	768
8	Marhamat	07.12.1970	Marhamat sh.	0,32	157,4	491
9	Oltinko`l	03.04.1978	Oltinko`l sh.	0,21	160,2	762
10	Paxtaobod	07.12.1970	Paxtaobod sh.	0,26	174,1	669
11	Ulug`nor	26.12.1973	Oqoltin sh.	0,42	54,4	129
12	Xo`jaobod	24.12.1962	Xo`jaobod sh.	0,23	100,3	436
13	Shahrixon	24.12.1962	Shahrixon sh.	0,29	170,5	587
14	Qo`rg`ontepa	24.12.1962	Qo`rg`ontepa sh.	0,47	196,4	417
	<b>Andijon viloyati</b>	<b>15.01.1938</b>	<b>Andijon sh.</b>	<b>4,30</b>	<b>2857,3</b>	<b>664</b>

*Jadval Andijon viloyati statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan*

O`zbekiston Respublikasining maydoni eng kichik, biroq aholisi eng ko`p bo`lgan mintaqalaridan biri Andijon viloyati 1941 yilda tashkil topgan. O`tgan asrning 60-yillarida u qo`shni Namangan viloyati bilan birlashib, Andijon viloyati nomida mavjud bo`lgan va so`ngra yana avvalgi rasmiy maqomi va hududi qayta tiklangan.



Viloyat maydoni 4,30 ming kv. km va bu nuqtai nazardan u mamlakatimizda Sirdaryo viloyatidan (4,28 ming kv. km) oldinda turadi, xolos. Atigi 0,96 foiz respublika maydonini egallagan ushbu hududda 2962,5 ming kishi yoki mamlakat jami aholisining 9,1 foizi yashaydi (aholi soni bo'yicha Farg'ona iqtisodiy rayonida birinchi, respublikamizda beshinchi o'rinda turadi).

Andijon viloyati hududi va aholisi nisbiy ko'rsatkichlarini taqqoslashning o'zi mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatining asosiy xususiyatlarini yaqqol namoyon qiladi. Bunda, eng avvalo, viloyat demografik sig'imining juda yuqoriligi, aholining o'ta zich joylashuvi, er resurslarining tanqisligi ko'zga tashlanadi. Aynan ana shunday vaziyat uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategik yo'nalishlarini belgilab olishni taqozo etadi.

Ma'muriy jihatdan Andijon viloyati viloyatga bo'sunuvchi 3 ta shahar, 14 qishloq tumanlari, 8 ta tumanga bo'sunuvchi shaharlar hamda 78 ta shaharcha, 458 ta qishloq aholi punktlaridan iborat.

Viloyat geografiasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, bu erda qishloq tumanlari "zich" va maydoni deyarli bir tekis taqsimlangan. Shunchalik miqdorda, ya'ni 14 ta qishloq tumanlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida ham mavjud, ammo ularning hududi Andijon viloyatidan bir necha marta katta. Viloyatda har bir tumanga atigi 0,31 ming kv. km.dan maydon to'g'ri keladi. Bu mamlakatimiz bo'yicha eng oz ko'rsatkichdir. Bu yerda "geografiylik koeffitsiyenti" 2,61 ga teng. Boshqacha qilib aytganda, eng katta tuman - Qo'rg'ontepa eng kichik tuman - Buloqboshidan 2,6 marta katta, vaholanki, bunday hududiy tafovutlar boshqa mintaqalarda, hatto qo'shni Namangan va Farg'ona viloyatlarida ham sezilarli darajada ko'proq.

Uncha katta maydonga ega bo'lmagan viloyat respublika hududiy mehnat taqsimotida, milliy iqtisodiyotning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. U mamlakatimizning 6,7 foiz yalpi ichki mahsulotini, 12,7 % sanoat va 9,7 foiz qishloq xo'jalik mahsulotini ta'minlaydi. Viloyatning xo'jaligi industrial-agrar yo'nalishga ega bo'lib, u eng avvalo, mashinasozlik (avtomobilsozlik), to'qimachilik sanoat tarmoqlariga, paxta va pilla etishtirishga ixtisoslashgan.

Viloyat bo'yicha aholi zichligi 1 kv kmga 664 kishi - bu nafaqat O'zbekistonda, balki butun MDH mamlakatlari bo'yicha ham eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Shahrixon (840 kishi) va Asaka (791 kishi) qishloq tumanlari esa zichlik ko'rsatkichiga ko'ra respublikamizda eng oldingi o'rinlarda turadi. Shu bilan birga zichlik Oltinko'l, Buloqboshi, Izboskan tumanlarida ham yuqori, faqat yangi o'zlashtirilgan cho'l hududlarda - Ulug'nor va Bo'zda u nisbatan past. Biroq ularning ko'rsatkichlari ham mamlakat o'rtacha darajasidan 2-3 marta ziyod.

Ko'rinib turibdiki, viloyat hududida antropogen bosim, demografik yuk nihoyatda yuqori. Bunday demografik vaziyat qator muammolarni, jumladan, milliy xalq an'analaridan kelib chiqqan holda uy-joy qurilishi, fermer xo'jaliklarini optimallashtirish kabi sohalarda muayyan qiyinchiliklarga olib keladi.

Andijon viloyatida nafaqat sanoat, balki qishloq xo'jaligi ham yaxshi rivojlangan. Buni viloyat o'zlashtirilgan erlarning deyarli qolmaganligi ham isbotlab beradi. Agar hududning iqtisodiy salohiyatini aniqlash lozim bo'lsa, yaratilgan yalpi mahsulotni mintaqa maydoniga bo'lib topish mumkin. Albatta, mazkur viloyatda bu ko'rsatkich nihoyatda katta bo'ladi va u hududning iqtisodiy salohiyati yuksakligidan, iqtisodiyotining yuqori zichligidan darak beradi. Shu jihatdan qishloq xo'jaligi ham bu erda intensiv rivojlanish xususiyatiga ega.

Viloyat qishloq xo'jaligi respublikamizning ayrim mintaqalaridan farq qilib, yalpi agrar mahsulotda dehqonchilikning ulushi kattaligida (72,7 %) o'z aksini topadi. Yer tanqisligi sababli fermer xo'jaliklar rivojlanishiga ham imkoniyatlar mintaqada biroz cheklangan. Mulkchilikning bu shakli yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 1/4 qismidan sal ko'prog'ini beradi.

Andijon viloyati umumiy yer maydoni 420,3 ming gektar, shundan qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlar 251,5 ming ga yoki 59,8 % - bu juda yuqori ko'rsatkich. Bunday erlar hissasi faqat Ulug'nor tumanida biroz kichikroq.


Qishloq xo'jaligining intensivligini bizning sharoitimizda sug'oriladigan yerlarning mavjudligi belgilab beradi. Alohida ta'kidlash lozimki, viloyatda bu ko'rsatkich nihoyatda yuqori - sug'oriladigan yerlarning qishloq xo'jaligida

foydalaniladigan jami yerlarga nisbatan ulushi 91,2 %. Jumladan, Baliqchi, Bo`z, Izboskan, Oltinko`l, Paxtaobod tumanlarida ular 100 foizni tashkil qiladi.

Viloyatda ekin ekiladigan yerlar qishloq xo`jaligida foydalaniladigan erlarning 79,5 foiziga teng; uning 8,2 % pichanzor va yaylovlardan iborat, xolos. Ekin yerlarning hissasi, xususan Baliqchi, Bo`z, Izboskan, Paxtaobod, Ulug`nor kabi tumanlarda katta, pichanzor va yaylovlar esa nisbatan Andijon, Xo`jaobod, Marhamat va Asaka tumanlarida ko`proq maydonni egallaydi.

2016 yilda viloyatda jami ekin maydonlari 231,6 ming gektar bo`lgan. Shundan donli ekinlar 92,1 ming ga maydonda etishtirilgan. Yalpi hosil 609 ming t yoki respublika g`allasining 8,2 foiziga barobar. Donli ekinlar tarkibida bug`doy etakchi: 83,5 ming ga, yalpi hosil 556,9 ming t, hosildorlik 66,7 s/ga. Paxtazorlar 100 ming gektarga yaqin bo`lib, u 2000 yilga qaraganda 6 ming gektarga qisqargan. Yalpi hosil ham biroz kamaygan va 293 ming tonnani tashkil qilgan, hosildorlik 29,4 s/ga. Paxta deyarli to`liq fermer xo`jaliklarida etishtiriladi.

**2-rasm. Andijon viloyatining ekin maydoni (jamiga nisbatan foizda)**



Boshqa texnika va moyli ekinlardan kungaboqarga juda katta e'tibor berilmoqda.

Viloyatda kartoshka etishtirish ham katta ahamiyatga ega. Ko`rilayotgan yilda u 7,1 ming gektarga ekilib, 170 ming tonnaga yaqin hosil olingan. Sabzavot 35,3 ming gektarni egallagan, yalpi hosili 862 ming tonna. 2016 yilda em-hashakka ajratilgan yer maydoni 13,0 ming gektarga, uning yarmidan ko`prog`i silos uchun ekiladigan makkajo`xori bilan band. Bog`dorchilik maydoni 23,8 ming gektarni tashkil qilgan; uzum 4,2 ming gektarda etishtirilgan; yalpi hosil, mos holda, 358 va 38 ming tonna.

Chorvachilik mahsulotlaridan 2016 yilda tirik vaznda go`sht 92 ming t, sut 541 ming t, tuxum 227 mln. dona, jun 1847 tonna, pilla 3317 tonna olingan. Yirik shoxli qoramollar soni 735 ming bosh, qo`y va echkilar 890 ming bosh.

Qishloq xo`jalik mahsulotlarini etishtirishda Andijon, Jalaquduq, Qo`rg`ontepa, Paxtaobod, Izboskan tumanlari oldinda (7,0-8,8 %). Shu bilan birga, Ulug`nor, Xo`jaobod, Bo`z va Buloqboshi tumanlarining ulushi pastroq.

Aholi jon boshiga hisoblaganda, viloyatda bir kishiga 616 ming so`mlik qishloq xo`jaligi mahsulotlari etishtirilgan. Eng yuqori ko`rsatkich Bo`z va Ulug`nor tumanlarida qayd etiladi - 1309 va 1155 ming so`m; Marhamat, Paxtaobod, Xo`jaobod tumanlarida ham bu ko`rsatkich o`rtacha darajadan ko`proq – 800 ming so`m atrofida.

Yuqorida ta'kidlanganidek, viloyatda fermer xo`jaliklarining tashkil etilishi va rivojlanishi o`ziga xos mintaqaviy xususiyat kasb etadi.

Ma'lumotlarga ko`ra viloyatda har bir fermerga o`rtacha 36,3 gektar yer to`g`ri kelgan va 18,2 kishi ishlagan. Eng katta yer maydoni yoki nisbatan kattaroq fermer xo`jaligi, eng avvalo, yangi o`zlashtirilgan Ulug`nor tumanida kuzatiladi (53,1 ga); ishchilar soni Shahrixon va Asakada eng ko`p (33,8 va 33,2 kishi). Asaka, Bo`z, Shahrixon, Izboskan tumanlarida ham bu ko`rsatkichlar ancha yuqori. Maydoni eng kichik fermer xo`jaliklari ham (22,4 ga), eng kam xodimlar soni ham Xo`jaobodda (7,9 kishi) qayd etiladi.

Tahlil etilayotgan yilda viloyat bo`yicha fermer xo`jaliklari jami qishloq xo`jalik mahsulotlarining 32,7 foizini bergan. Qizig`i shundaki, yangi o`zlashtirilgan Ulug`nor tumanida fermer xo`jaligining iqtisodiy samaradorligi eng

yuqori (47,6 %). Shuningdek, Baliqchi, Bo`z, Qo`rg`ontepa tumanlarida ham bu ko`rsatkichlar sezilarli 40 foizdan ko`p. Ayni paytda nisbatan past ko`rsatkichlar Shahrixon, Xo`jaobod, Oltinko`l qishloq tumanlarida qayd etiladi. Bunday tafovutlar qisman aholi zichligi bilan bog`liq.

2-jadval

### Namangan viloyati qishloq tumanlarining maydoni va aholisi

t/r	Qishloq tumanlari	Tashkil topgan vaqti	Ma'muriy markazi	Maydoni, ming kv.km	Aholisi, ming kishi	Aholi zichligi, 1 kv.km kishi
1	Kosonsoy	26.12.1793	Kosonsoy sh.	0,52	188,4	362
2	Mingbuloq	22.12.1964	Jumasho`y sh-cha	0,74	114,2	154
3	Namangan	29.09.1926	Toshbuloq sh-cha	0,25	216,7	866
4	Norin	12.01.1973	Haqqulobod sh-cha	0,21	149,9	713
5	Pop	29.09.1926	Pop sh-cha	2,91	200,5	69
6	To`raqo`rg`on	07.12.1970	To`raqo`rg`on sh.	0,28	203,0	725
7	Uychi	09.01.1967	Uychi sh-cha	0,31	212,0	683
8	Uchqo`rg`on	09.05.1935	Uchqo`rg`on sh.	0,30	156,8	522
9	Chortoq	27.12.1980	Chortoq sh.	0,38	182,4	480
10	Chust	29.09.1926	Chust sh.	0,93	242,0	260
11	Yangiqo`rg`on	29.09.1926	Yangiqo`rg`on sh-cha	0,53	203,4	383
	<b>Viloyat bo`yicha</b>	<b>18.12.1967</b>	<b>Namangan sh.</b>	<b>7,44</b>	<b>2554,2</b>	<b>343</b>

*Jadval Namangan viloyati statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

Namangan viloyati O`zbekiston Respublikasi Farg`ona vodiysi qismining eng katta hududi hisoblanib, uning maydoni 7,44 ming kv. km. Bu Farg`ona iqtisodiy rayonining 40,2 foizi, mamlakatimizning 1,6 foiz maydoni demakdir.

Aholisi, 2016 yil dastlabki ma'lumotlariga qaraganda, 2652,4 ming kishi yoki respublika aholisining 8,0 foizi shu mintaqada yashaydi. Vodiya, garchi viloyat o'zining maydonini nisbatan kattaligi bilan ajralib tursada, aholi soni bo'yicha u Farg'ona va Andijon viloyatlaridan orqada turadi. Biroq shunga qaramasdan, respublika miqyosida Namangan viloyati aholisi zich joylashgan hududlar qatoriga kiradi.

Mamlakat mehnat taqsimotida Namangan viloyati, eng avvalo, dehqonchilik (paxta, pilla, meva, uzum etishtirish), engil va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan. U respublika yalpi hududiy mahsulotining 3,9, xalq iste'mol mollarining 3,7, qishloq xo'jaligi mahsulotining 7,2, chakana savdo hajmining 6,0 foizini beradi.

Namangan viloyati iqtisodiyoti agrar-industrial yo'nalishga ega. Bu yerda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari mavjud, ularning rivojlanganlik holati, ixtisoslashuvi va muammolari viloyatning geografik o'rnini, tabiiy sharoiti va resurslari, demografik vaziyati va mehnat salohiyati, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilma ta'sirida shakllangan.

Viloyat yalpi hududiy mahsulotining 7,1 foizini sanoat, 33,8 foizini qishloq xo'jaligi beradi.

Mintaqa iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi etakchi rol o'ynaydi. Hududning yer maydoni, uning agroiqlimiy resurslari, soylar va qator irrigatsiya infratuzilmasi ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligining rivojlanishiga xizmat qiladi. Xususan, viloyat hududi, uning qator adirlari quyoshga ro'para turganligi ("kungey") ham ijobiy ahamiyatga ega. Bu yerda Shimoliy Farg'ona kanali, Katta Andijon, Katta Namangan va Katta Fary'ona kanallari asosiy suy'orish manbalari hisoblanadi.

Namangan viloyatining umumiy yer maydoni 735,1 ming gektar, uning 287,3 ming gektari qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlardir (39,1 %). Yerning foydali koeffitsiyenti Namangan, Norin, Uychi tumanlarida yuqori, Pop tumanida esa u ancha past - 19,5 %.

Ma'lumki, O'zbekiston sharoitida, ayniqsa, sug'oriladigan yer maydonlari muhim sanaladi. Bunday yerlar viloyatda 235,1 ming ga yoki qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 81,8 foiziga teng bo'lib, bu, albatta, ancha yuqori

ko`rsatkich. Norin, Mingbuloq, Uychi, Uchqo`rg`on, Namangan tumanlari qishloq xo`jaligida foydalaniladigan yerlarning deyarli 100 foizi sug`oriladigan yerlardan iborat. Qishloq xo`jaligida foydalaniladigan yerlarning 68,9 foiziga ekinlar ekiladi. Bu ko`rsatkich Mingbuloq, Uchqo`rg`on, Norin hamda Uychi tumanlarida yuqori, uning nisbatan past darajasi esa Yangiqo`rg`on, Pop va Chortoq tumanlarida kuzatiladi. Pichanzorlar va yaylovlar ulushi o`rtacha 18,3 % bo`lgan holda, uning yuqoriroq ko`rsatkichlari Pop va Chortoq tumanlarida qayd etiladi.


Ko`rilayotgan yilda 96,2 ming gektar maydonga donli ekinlar ekilgan, shu jumladan, bug`doy 88,8 ming ga, yalpi hosil 492 va 449 ming t. har bir gektardan 51 sentnerga yaqin bug`doy olingan. Paxta maydoni 88 ming ga, yalpi hosil 241 ming tonna, hosildorlik 27,4 s/ga.

Namangan viloyati mamlakatimizda kartoshka etishtirishda ham ko`zga ko`rinarli mavqega ega maydoni (6,1 ming ga). Bu ekin, xususan, Yangiqo`rg`on, Chust, Chortoq tumanlarida ko`proq ekiladi. Viloyat bo`yicha bir yilda 153 ming tonna kartoshka olingan. Shuningdek, sabzavot (13,0 ming ga), poliz ekinlari (2,0 ming ga) ham ancha ko`p. Sabzavotchilik Namangan shahri atrofida, poliz, qovun (shakarpalak, obi navvot va b.) Chust va Pop tumanlarida ko`p etishtiriladi.

Em-xashak ekinlaridan (13,8 ming ga) ko`proq silos uchun makkajo`xori ekiladi. Viloyat adir mintaqalari, ayniqsa, bog`dorchilik uchun qulay. Uning maydoni 25,0 ming ga, yalpi hosil 126 ming tonna. Bu esa, o`z navbatida, meva-konserva sanoati uchun muhim xom ashyodir. Tokzorlar maydoni ham ancha – 12,3 ming ga. Umuman viloyat shirin-shakar uzum va anorlari, “Namangan olmasi” kabilar bilan mashhur.

Yirik shoxli qoramollar soni 520 ming bosh. Agar qoramolchilik uchun viloyatda sharoit birmuncha cheklangan bo`lsa, qo`y va echkichilikka bu yerda qulay imkoniyatlar mavjud. Ularning soni 614 ming bosh.

### **3-rasm. Namangan viloyati ekin maydonining tarkibi**



Namangan viloyati, eng avvalo, Pop tumani bu borada ajralib turadi. Bir yilda tirik vaznda 80 ming tonna go`sht, 385 ming t sut, 100 mln. dona tuxum, 1120 tonna atrofida jun, 2646 tonna pilla olingan. Viloyatning, xususan tog`etaklarida asalarichilik ham yaxshi rivojlangan.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining salmog`i bo`yicha Yangiqo`rg`on va Chust tumanlari etakchilik qiladi: 15,6 va 10,0 %. Qizig`i shundaki, Namangan shahri ham viloyat qishloq xo`jalik mahsulotlarining 1/10 qismiga yaqinini beradi. Bu hozirgi zamon urbanizatsiyasi nuqtai nazaridan antiqa holatdir. Nisbatan kam ko`rsatkichga Kosonsoy va Norin tumanlari ega. Albatta, real vaziyat yuqoridagi ko`rsatkichlarda emas, balki aholi jon boshiga hisoblaganda yaqqol namoyon bo`ladi.

Avval ta'kidlaganimizdek, viloyatda fermerchilik ham ancha rivojlangan. Fermer xo`jaliklari yalpi qishloq xo`jalik mahsulotining 30,6 foiz ta'minlaydi. Ushbu mulkchilik shakli ayniqsa Mingbuloq va Pop tumanlarida yaxshi natijalarga ega. Bunday hududiy tafovutlar qishloq xo`jaligining ixtisoslashuvi, er-suv imkoniyatlari hamda geodemografik vaziyat ta'sirida yuzaga keladi. Tahlillar ko`rsatishicha, fermer xo`jaliklari g`alla, paxta, em-xashak, bog`dorchilik hamda uzum etishtirishda etakchi soha hisoblanadi. Dehqon xo`jaliklari esa ko`proq sabzavot, poliz mahsulotlarini etishtiradi, chorvachilik bilan shug`ullanadi.



Shunday qilib, yuqoridagi o`rganishlar Namangan viloyati qishloq xo`jaligi salohiyatining kattaligini yana bir bor isbotlab beradi. Yaqin kelajakda ham bu maqroiqtisodiy sohaning ahamiyati saqlanib qoladi.

3-jadval

### Farg`ona viloyati qishloq tumanlarining maydoni va aholisi

t/r	Qishloq tumanlari	Tashkil topgan yili	Ma'muriy markazi	Maydoni ming kv. km	Aholisi, ming kishi	Zichligi 1kv. km kishi
1	Beshariq	29.09.1926	Beshariq sh.	0,77	208,1	270
2	Bog`dod	31.12.1964	Bog`dod sh-cha	0,33	193,9	587
3	Buvayda	26.12.1973	Yangiqo`rg`on sh-cha	0,28	206,4	737
4	Dang`ara	07.12.1970	Dang`ara sh-cha	0,43	158,0	367
5	Yozyovon	27.12.1980	Yozyavon sh-cha	0,41	100,2	244
6	Oltiariq	29.09.1926	Oltiariq sh-cha	0,63	194,4	308
7	Rishton	09.01.1967	Rishton sh.	0,31	183,9	593
8	So`x	27.02.1990	Ravon sh-cha	0,31	70,5	227
9	Toshloq	12.04.1973	Toshloq sh-cha	0,24	183,0	762
10	Uchko`prik	29.09.1926	Uchko`prik sh-cha	0,28	206,6	737
11	Farg`ona	22.02.1964	Vodil sh-cha	0,62	196,3	316
12	Furqat	09.04.1992	Navbahor sh-cha	0,31	107,6	347
13	O`zbekiston	17.04.1963	Yaypan sh.	0,69	217,3	314
14	Quva	10.02.1939	Quva sh.	0,44	235,9	536
15	Qo`shtepa	16.04.1952	Langar sh-cha	0,37	172,7	466
<b>Viloyat</b>		<b>15.01.1938</b>	<b>Farg`ona sh.</b>	<b>6,76</b>	<b>3444,9</b>	<b>509</b>

*Jadval Farg`ona viloyati statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqildi.*

Farg`ona viloyati respublikamizda 1938 yilda tashkil topgan 5 ta viloyatlardan biri hisoblanadi. Uning maydoni 6,76 ming kv km bo`lib, bu borada Sirdaryo, Andijon va Xorazm viloyatlaridan oldinda turadi. O`zbekiston

Respublikasi maydoniga nisbatan esa Farg`onaning hududi atigi 1,5 foizga teng, xolos. Vaholanki, bu erda, 1.01.2017 yil ma'lumotlariga ko`ra, 3564,8 ming yoki mamlakat aholisining yaqin 11,0 foizi yashaydi. O`zining demografik salohiyati bo`yicha u mamlakatimizda Samarqand viloyatidan keyingi 2-o`rinda turadi.

Farg`ona viloyati respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o`rinni egallaydi. U mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 7,5 foizini, sanoat ishlab chiqarishini 8,9 %, qishloq xo`jalik mahsulotlarining 8,4 % ta'minlaydi; investitsiyalar hajmi 5,3 va kapital qurilishlar 4,5 %. Viloyatga O`zbekiston eksportining 4,3 va importning 5,3 foizi to`g`ri keladi. Ko`rinib turibdiki, Farg`ona viloyati ba'zi sohalarda ko`zga ko`rinarli nisbiy ko`rsatkichlarga ega bo`lsada, bu raqamlar ko`p hollarda uning mavjud demografik sig`imidan past. Demak, bu erda ham ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ko`tarish masalasi dolzarbdir.

Viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Shohimardonsoy va Isfayramsoylarning ham ahamiyati katta. Shohimardonsoyning davomi Marg`ilonsoy, Oltiariqsoy va ulardan taralib ketgan ko`plab ariqlar muhim sug`orish manbai va agrolandshaftlarning asosi bo`lib xizmat qiladi. Shohimardonsoy Isfayramsoy bilan birgalikda Farg`ona, Oltiariq, Qo`shtepa, qisman Toshloq va Yozyovon tumanlarini suv bilan ta'minlaydi. Isfara daryosining ta'sir doirasi esa asosan Beshariq tumani bilan chegaralanadi. Ayni vaqtda eng katta va sersuv So`x o`zining tipik geografik yoyilmasi (konusini) tashkil etgan va uning suvlari butun qo`qon vohasi, ya'ni Dang`ara, Yaypan, Uchko`prik, Buvayda, So`x, Rishton, Furqat tumanlarini sug`oradi.

O`tgan asrning o`rtalarida qurilgan Sariqo`rg`on (Sirqo`rg`on) gidrouzeli, So`x daryosidan to`sib, uning suvini asosiy qismlarga taqsimlaydi. Qizig`i shundaki, soylar o`zlarining gidrologik xususiyatlariga mos holda (eng avvalo, suv hajmiga ko`ra) o`ziga xos va mos gidroxo`jalik rayonlarni tashkil etgan. Ular gorizontal yo`nalishda o`tkazilgan Katta Farg`ona kanali hamda Janubiy Farg`ona va Katta Andijon kanallari bilan birga mintaqaning tarixiy-geografik o`zagi, "qovurg`asi" hisoblanadi va yagona Farg`ona vohasini tashkil qiladi. Suv rejimi va miqdoriga qarab bu soylar turli yiriklikdagi shaharlarga hayot bag`ishlaydi.

Masalan, So`x qo`qonni, Shohimardonsoy (Marg`ilonsoy) Marg`ilon va Farg`onani suv bilan ta'minlaydi. Viloyat sug`orish tizimi yoki irrigatsiya infratuzilmasida Karkidon, Sho`rsuv, Qo`rg`ontepa suv omborlari katta ahamiyatga ega. Ular soy suvlarini yig`ib, vegetatsiya davrida pastki hududlarga suv beradi. Ayni paytda aksariyat suv manbalari qo`shni mamlakatlar hududidan boshlanganligi sababli ular strategik ahamiyat ham kasb etadi va xalqaro tartib-qoidalar asosida davlatlararo to`g`ri foydalanishni talab etadi. FarG`ona viloyatining quyi, ya'ni shimoliy qismida melioratsiya tizimiga daxldor zovur va kollektorlar qurilgan. Ular jumlasiga Pastki qiziltepa, O`rta Qiziltepa, Shimoliy Bog`dod, Rishton - Bog`dod kollektorlari va qator zovurlar kiradi.

Shu o`rinda ta'kidlash joizki, tog` va adirlarda qurilgan suv omborlari, suG`orish kanallarining pastki qismida er osti suvlari (grunt suvlari) sathi yuqori va erga yaqin. Natijada, zax joylar va ular bilan bog`liq geoeologik vaziyatlar, turli xil termitlar, kemiruvchilarning ba'zan ko`payish holatlari yuzaga keladi.

Shunday qilib, viloyat tabiiy sharoiti, aniqrog`i suv resurslari - soy, ular asosida o`tkazilgan ariqlar, qazilgan kanallar mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining etakchi omili hisoblanadi. Bu erdagi ko`plab oromgohlar, rekreatsiya manbalari (Shohimardon, Vodil, Rapqon va b.) ham aynan gidrologik omillar sababli vujudga kelgan.


Farg`ona viloyati respublikamizda muhim qishloq xo`jaligi rayoni ham hisoblanadi. Viloyat mamlakat yalpi qishloq xo`jaligi mahsulotining 8,4 foizini beradi. Bu erda paxta va pilla etishtirish, sabzavotchilik va bog`dorchilik yaxshi rivojlangan. Jami qishloq xo`jaligi mahsulotining 64,2 foizi dehqonchilikka to`g`ri keladi. Fermer xo`jaliklari bu mahsulotning 35,1 foizini ta'minlaydi.

Ma'lumotlarga qaraganda, viloyat umumiy yer maydonining 46,6 foizi qishloq xo`jaligida foydalaniladigan yerlarga to`g`ri keladi. Ushbu ko`rsatkich Rishton, Uchko`prik, Bog`dod, Buvayda va Qo`shtepa tumanlarida yuqori (jami maydonning 60-70 foizi atrofida), So`x, Oltiariq, Beshariq, O`zbekiston, Farg`ona tumanlarida nisbatan ozroq. Qishloq xo`jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibida sug`oriladigan yerlar ulushi o`rtacha 94,7 %. Bunday yerlar ham Qo`shtepa,

Buvayda, Oltiariq, Toshloq, Yozyovon qishloq tumanlarida ko`proq. Ayni paytda So`x, Rishton, Uchko`prik tumanlarida sug`oriladigan yerlar ulushi ozroq.

Ekin ekiladigan maydonlar qishloq xo`jaligida foydalaniladigan yerlarning 81,3 foizini tashkil qiladi, yaylov va pichanzorlar 6,6 %. Intensiv qishloq xo`jaligi, ya'ni sug`orma dehqonchilik, xususan, Oltiariq, Qo`shtepa, Quva, Toshloq tumanlarida yaxshi yo`lga qo`yilgan, yaylov va pichanzorlar esa So`x, Rishton, O`zbekiston, Beshariq tumanlarida ko`proq.

#### 4-rasm. Farg`ona viloyatining ekin maydoni (foizda)



Donli ekinlar 132 ming gektarga ekilib, undan 759 ming tonna hosil olingan; hosildorlik 57,2 s/ga (shu jumladan, bug`doy maydoni 129,1 ming ga, yalpi hosil – 740 ming tonna). Boshqa donli ekinlardan qisman makkajo`xori ham ekiladi.

Ta'kidlash joizki, boshqa mintaqalarda bo`lgani kabi bu yerda ham paxta maydonlari biroz qisqarib bormoqda. Masalan, 2000 yilda paxtazorlar jami ekin maydonining 41,0 foizini tashkil qilgan bo`lsa, 2010 yilda bu raqam 36,4 foizga tushib qolgan. Umumiy maydoni 104 ming gektar erga paxta ekilib, undan 290 ming tonna hosil olingan, hosildorlik 28,0 s/ga (2000 yilda 363 ming t paxta, hosildorlik – 29,4 s/ga).

Farg`ona viloyati kartoshka etishtirishga ham ixtisoslashgan. Bu ekin ayniqsa So`x, Rishton, O`zbekiston tumanlarida ko`proq etishtiriladi. Viloyat bo`yicha kartoshka maydoni 7,7 ming ga, yalpi hosil 170 ming tonna atrofida.

Qishloq tumanlari orasida, Oltiariq tumani bulg`or qalampiri, turp, sholg`om, bodring kabilarni etishtirish bilan mashhur. Viloyat, xususan, Qo`qon guruh tumanlarida achchiq qalampir (garmdori) ham ko`p etishtiriladi va ko`p iste'mol qilinadi. Turli xil sabzavot ekinlari bilan 17,0 ming ga er band; bir yillik hosil 460 ming tonna. Sabzavotchilik bilan kartoshka etishtirish singari, asosan dehqon xo`jaliklari shuG`ullanishadi. Em-hashak ekinlari 27,6 ming gektarni egallaydi. Asosan, silos uchun makkajo`xori ekiladi. Bir yilda 910 ming tonna hosil olinadi.

Farg`ona vodiysi, shu jumladan, Farg`ona viloyatida bog`dorchilik va uzumchilik yaxshi yo`lga qo`yilgan. Bu yerda o`rik, olma, anor, anjir, shaftoli, nok, behi, so`nggi yillarda xurmo, shuningdek, turli navli uzumlar etishtiriladi. Jami mevazorlar maydoni 31 ming ga, bu soha ko`proq fermer xo`jaliklariga tegishli. Yalpi hosil 256 ming tonna. Uzumzorlar maydoni 4,3 ming ga, yalpi hosil 66 ming tonna. Uzum ko`pgina qishloq tumanlarida etishtiriladi, biroq bu borada Oltiariq o`zining husayni uzumlari bilan dong taratgan.

Farg`onada chorvachilikni rivojlantirish imkoniyatlari respublikamizning cho`l mintaqalari, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlariga qaraganda biroz cheklangan. Bu yerda 1 yirik shoxli qoramollar soni 724 ming bosh, qo`y va echkilar – 625 ming bosh. Bir yilda go`sht (tirik vaznda) 98,1 ming tonna, sut 589 ming tonna, tuxum 180 mln dona, pilla 2525 tonna olinadi.

Bevosita agrogeografiya nuqtai nazaridan bog`dorchilik nisbatan adir zonalarda ko`proq, paxta viloyatning quyi qismida joylashgan barcha tumanlarida, sabzavotchilik yirik shaharlar atrofida rivojlangan. qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etishtirishda Quva, Farg`ona, Oltiariq, Beshariq tumanlari yetakchi, ularning ulushi viloyat qishloq xo`jaligi mahsulotiga nisbatan, mos holda, 7,2; 7,2; 7,9 va 6,7 %. Pastroq ko`rsatkichlar So`x, Yozyovon, Furqat tumanlarida kuzatiladi. Aholi jon boshiga hisoblaganda esa Yozyovon, Furqat, Qo`shtepa, Dang`ara tumanlari birmuncha ajralib turadi. Bu holat qisman ularning demografik salohiyatining ozligidan ham yuzaga keladi. Pastroq ko`rsatkichlar Uchko`prik hamda O`zbekiston tumanlarida qayd etiladi. Umuman olganda esa, bu borada katta

hududiy tafovutlar ko'zga tashlanmaydi. Bu ham bo'lsa, viloyatda qishloq xo'jaligining yaxshi rivojlanganligidan darak beradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, fermer xo'jaliklarining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Mulkchilikning bu turini mintaqaviy xususiyatlari shundan iboratki, u aholi zich, er-suv resurslari cheklangan hududda rivojlanmoqda. Farg'ona viloyatida jami 7737 ta fermer xo'jaligi qayd etilgan, umumiy yer maydoni 337 ming ga, ishlaydigan xodimlar soni 202 ming kishi; har bir xo'jalikka o'rtacha 45,5 ga yer va 26,1 ishchi to'g'ri kelgan. Ko'rinib turibdiki, viloyat fermer xo'jaliklarining yer maydonlari respublikaning boshqa, masalan, Buxoro, Navoiy viloyatlariga qaraganda ancha kichik, ishchilar sonida esa bunchalik katta farq yo'q. Bu, tabiiyki, fermer xo'jaliklarining faoliyati, ularning samaradorigiga katta ta'sir ko'rsatadi. Fermer xo'jaliklari viloyat yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining 35,1 foizini beradi. Bu ko'rsatkich Bog'dod, Quva, Yozyovon, Furqat tumanlarida ancha yuqori, So'x tumanida esa u atigi 13,3 foizga teng, xolos.

### **II.3. Farg'ona vodiysi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlari**

Andijon viloyatini mikroiqtisodiy rayonlarga ajratadigan bo'lsak, u holda bu erda uch rayonni ko'rsatish mumkin: Markaziy (Andijon va Asaka shaharlari, Andijon, Asaka, Shahrixon, Paxtaobod, Izboskan tumanlari); Janubi-sharqiy (Marhamat, Jalaquduq, Qo'rg'ontepa, Xo'jaobod, Buloqboshi tumanlari) va G'arbiy rayon (Baliqchi, Bo'z va Ulug'nor). Shubhasiz, ular orasida Markaziy rayonning iqtisodiy qudrati katta. Bu borada ayniqsa Andijon - Asaka - Shahrixon «uchburchagi» muhim mavqega ega. Andijon aglomeratsiyasi va sanoat tuguni viloyat geoiqtisodiy makonining o'zagini tashkil etadi. Shu bilan birga, adir orqasidagi Janubi-sharqiy rayon ham ancha rivojlangan, ammo uchinchi, ya'ni keyingi yillarda o'zlashtirilgan G'arbiy rayonning iqtisodiy va demografik salohiyati hozircha yuqori emas.

Bevosita qishloq tumanlari darajasida ko'riladigan bo'lsa, qishloq joylar sanoati bu joylarda sust rivojlangan. Bu boradagi indikatorlar ayniqsa Ulug'nor,

Paxtaobod, Buloqboshi tumanlarida past. qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish indeksi faqat Shahrixon, Izboskan, Asaka va shaharlarda 1,000 dan past, eng yuqori ko`rsatkich Bo`z tumanida – 2,124. Xuddi shunday hududiy tafovutlar boshqa ijtimoiy – iqtisodiy sohalarda ham ko`zga tashlanadi. Masalan, qurilish ishlarida, 2010 yil yakunlariga ko`ra, shaharlarni hisobga olmaganda, indikator Baliqchi va Bo`z tumanlarida nisbatan kattaroq. Chakana savdoda esa Xo`jaobod va Shahrixonda vaziyat yaxshiroq, pullik xizmat ko`rsatish asosan shahar joylarda; Andijon shahri (2,691) va Asaka (1,617)da amalga oshiriladi.

Umuman olganda, Andijon viloyatida Buloqboshi, Marhamat, Paxtaobod va Ulug`nor qishloq tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi pastroq. Chindan ham ushbu ishda olib borilgan tahlillar mazkur tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ma'lum muammolar borligini isbotlab beradi.

Namangan viloyatida qator tabiiy hamda iqtisodiy geografik sharoit, tarixiy omillar viloyatning hozirgi ichki tarkibiga sabab bo`lgan. Sof geografik jihatdan bu borada tekislik hamda tog` va tog` oldi (adir) hududlarini, shahar atrofi xo`jaligi – Namangan aglomeratsiyasini ajratish mumkin. Chindan ham Namangan aglomeratsiyasi viloyatning eng katta qismini egallaydi. Uning yaqin va asosiy “yo`ldosh” shahar joylari - Uychi, Uchqo`rg`on, Xaqqulobod, Unhayot, Kosonsoy, To`raqo`rg`on, Oqtosh kabilar hisoblanadi. Agar Namangan va To`raqo`rg`on shaharlari o`rtasida biroz “bo`shliq” bo`lsada, Uchqo`rg`on yo`nalishida u umuman ko`zga tashlanmaydi; xonadonlar bir-biriga ulanib ketgan va bu yerda Namangan shahrining haqiqiy chegarasini ajratish qiyin.

Umuman olganda, Namangan viloyatida 2 ta ichki iqtisodiy rayonlarni ajratish mumkin: Namangan va Chust - Pop. O`z nomidan ko`rinib turibdiki, ikkinchi rayon shu nomli qishloq tumanlaridan tashkil topgan. Uning maydoni viloyat maydonining 51,6 foizini, aholisining esa 17,4 foiziga teng. Sanoat salohiyati 11,3 %, qishloq xo`jaligi 16,1 % (2016 y.). Bu rayon garchi katta maydonni egallasada, uning nisbatan noqulay tabiiy sharoiti tufayli uncha yuqori ko`rsatkichlarga erishmagan.

Bevosita viloyat markazi ta'sirida shakllangan rayon esa mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining asosini tavsiflaydi. Hatto, viloyatning ikkinchi shahri – qadimiy Chust ham ma'lum darajada Namangan shahriga “tortilgan”. Shu o`rinda aytish lozimki, Chust shahri respublikamizning bir qator tarixiy, ammo sust rivojlangan shaharlar ro`yxatiga kiradi (Denov, Xiva, G`ijduvon, Nurota va boshqalar). Biroq uning o`ziga xos va o`ziga mos salohiyati hozircha vujudga kelmagan. Fikrimizcha, bu shaharni qandaydir qo`shimcha omillar yoki qulayliklar asosida “uyg`otish”, uni viloyatning o`rish markazi sifatida rivojlantirish mintaqa ishlab chiqarish kuchlarini birmuncha to`g`riroq hududiy tashkil etishga olib keladi. Shu maqsadda tumanning investitsiya muhiti va infratuzilma tizimini yanada yaxshilash talab etiladi.

Uchqo`rg`on, Pop, Namangan qishloq tumanlarining sanoat salohiyati (indeksi) nisbatan yuqoriroq, qishloq xo`jaligida esa Yangiqo`rg`on, Mingbuloq, Uchqo`rg`on tumanlari oldinda.

Ijtimoiy sohalar rivojlanishi bo`yicha, Namangan shahrini hisobga olmaganida, Chust, To`raqo`rg`on, Pop kabi qishloq tumanlari ajralib turadi. Yangi o`zlashtirilgan yerlar negizida tashkil etilgan Mingbuloq tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi o`rtachaga yaqin.

Shunday qilib, Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida qator muammolar mavjud. Bular: Namangan shahri va aglomeratsiya rivojlanishini tartibga solish, boshqarish, adir mintaqalarini o`zlashtirish, er-suv resurslaridan samarali foydalanish hamda geoekologik muammolardan iborat. Ayniqsa, mintaqa va uning qishloq joylarida investitsiya muhitini yaxshilash, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani zamon talabi darajasida shakllantirish va shu asosda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini keskin ko`tarish zarur. Chunki, respublikada ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat va mazmunga ega bo`lgan urbanizatsiyaning eng yuqori darajasi mavjud holatga aslo to`y`ri kelmaydi. Binobarin, bu borada ham istiqbolda davlatimiz mintaqaviy siyosati doirasida ancha ishlar amalga oshirilishi kerak.



Farg`ona viloyatida 2 ta ichki iqtisodiy rayon yaqqol ko`zga tashlanadi. Bu rayonlar ko`proq gidrografik omillar, ya'ni soylar, ular sug`orma dehqonchilik, qayta ishlash sanoati asosida shakllangan.

Birinchi rayon ya'ni Farg`ona – Marg`ilon rayoni tarkibiga quvasoy shahri, Farg`ona, quva, Toshloq, Oltiariq, Yozyovon, qo`shtepa qishloq tumanlari kiradi. Rayon hosil qiluvchi markaz Farg`ona – Marg`ilon aglomeratsiyasi. Uning hissasiga viloyatning 40,1 % maydoni, 47,9 % aholisi, 83,8 % sanoat va 42,0 % qishloq xo`jaligi mahsulotlari to`g`ri keladi; investitsion salohiyati – 63,9 % (2016 y.).

Ikkinchi ijtimoiy-iqtisodiy rayon tarixan Qo`qon shahri ta'sirida shakllangan. Uning tarkibiga O`zbekiston, Beshariq, Rishton, Furqat, Bog`dod, Buvayda, Dang`ara, So`x, Uchko`prik tumanlari mansub. Viloyatga nisbatan maydoni 59,9 %, aholisi 52 %, 16,2 sanoat va 51,4 foiz qishloq xo`jalik mahsuloti; investitsion muhiti birinchi rayonga nisbatan birmuncha noqulayroq.

Farg`ona - Marg`ilon iqtisodiy rayonida neftni qayta ishlash, kimyo, qurilish materiallari, to`qimachilik, oziq-ovqat sanoat tarmoqlari, elektr energetika yaxshiroq rivojlangan. Bu erda bog`dorchilik, xususan, uzumchilik va sabzavotchilik ham etakchi qishloq xo`jaligi tarmoqlaridan hisoblanadi. Qo`qon guruh rayoni esa asosan oziq-ovqat (spirt, o`simlik yog`i) mineral o`g`itlar (super fosfat), trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish, agroiqtisodiyotda paxta va meva etishtirishga ixtisoslashgan.

Tumanlar orasida Toshloq, quva sanoati yaxshiroq rivojlangan (viloyatga nisbatan 5,9 va 3,5 foizdan). Rishton, Bog`dod tumanlarida ham qishloq sanoati birmuncha shakllangan. Ayni vaqtda u So`x, Furqat, qo`shtepa, Dang`ara va Buvayda kabi tumanlarda sust darajada. Qishloq xo`jaligi mahsuloti bo`yicha oldingi o`rinlarda Farg`ona, quva, Uchko`prik, Oltiariq va Beshariq tumanlari turadi, o`rtacha mavqega Bog`dod, Buvayda, Dang`ara, Qo`shtepa va Rishton tumanlari ega. Qolgan tumanlarning ishlab chiqarish salohiyati pastroq (eng kichik ko`rsatkich So`x, Yozyovon va Furqat tumanlarida). Viloyatning Markaziy Farg`ona yoki Qoraqalpoq cho`lida o`rnashgan hududlari hamda tog` oralig`ida

joylashgan So`x tumani nisbatan sust rivojlangan. Binobarin, kelajakda ushbu hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, qishloq mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash, Farg`ona - Marg`ilon aglomeratsiyasi ekologik vaziyatini yaxshilash mintaqaning dolzarb muammolaridir.

Darhaqiqat, aholi sonining ko`pligi, uning sonini oshib borishi, yer va suv zahiralarining etishmasligi mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy holatiga jiddiy ta'sir ko`rsatadi. Bunday keskin vaziyatdan chiqish yo`llaridan biri sanoatlashuv va urbanizatsiyani qo`llab quvvatlash, zamonaviy infratuzilmalarni shakllantirish asosida industriya - innovatsiya, o`sish qutb va markazlarini vujudga keltirish bo`lishi mumkin. Aynan shunday strategik yo`nalish mamlakatimizning aholi zich boshqa voha va vodiylari uchun ham mos keladi.

Shunday qilib, Farg`ona mintaqasiga kiruvchi viloyatlar ishlab chiqarish salohiyati va rivojlanish yo`nalishlari o`zaro birmuncha farq qiladi. Chunonchi, sanoat qudrati bo`yicha Farg`ona viloyati Andijon va Namangan viloyatlarini birgalikda hisoblaganda ham ulardan katta. Ammo, Andijonda rivojlanish sur'ati yuqori, qolgan viloyatlarda esa bu ko`rsatkich pastroq.

Agar Respublika darajasini 1,00 deb olsak, Farg`ona viloyatida jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish indeksi 1,15, Andijonda 0,91 va Namanganda 0,47 ga teng. Demak, Namangan viloyati bu jihatdan mamlakat ko`rsatkichidan 2 martadan ko`proq orqada. Qishloq xo`jaligi indeksi esa faqat Farg`onada o`rtachadan kamroq, qolganlarda va, ayniqsa Andijon viloyatida u yuqori.

Viloyatlarda sanoat ishlab chiqarishining korxonalar darajasidagi mujassamlashuvi ham har xil. Masalan, Namangan viloyatining har bir sanoat korxonasiga 276 kishi to`g`ri kelsa, Andijonda u 365 kishiga teng. Farg`ona viloyatida ham bu ko`rsatkich yuqoriroq.

Mintaqa iqtisodiyotining asosini keng ma'nodagi agrosanoat majmui tashkil qiladi. Shu bilan birga bu yerda elektr energetika bazasi yaxshi rivojlanmagan. Binobarin, rayonda elektr quvvatini ko`p talab qiluvchi tarmoqlar uchun sharoit uncha qulay emas. Ayni vaqtda iqtisodiyotning rivojlanishida mahalliy sanoat

hamda katta an'analarga boy bo'lgan hunarmandchilik va kasibchilikning o'rnini ham ta'kidlash joiz (Chust va Shahrixon pichoqlari, Chust va Qo`qon do`ppisi, Marg`ilon xonatlasi, Andijon mahsilari, Rishton sopol idishlari va h.k). Kelajakda bu erda rekreatsiya resurslaridan ham keng foydalanish, xalqaro turizmni rivojlantirish zarur. Chortoq, Chimyon, Shohimardon, So`x, so`lim tabiatli soylar vodiysilari, qadimiy Pop, Axsikent, Kosonsoy arxeologik ob'ektlari, Qo`qon, Quva kabilar, sug`orish inshootlari bu borada katta ahamiyatga ega.

Kelajakda iqtisodiy rayon rivojlanishida quyidagi muammolarni hal qilish zarur:

- ❖ qishloq xo`jaligida iqtisodiyot samaradorligini oshirish;
- ❖ qishloq joylar ijtimoiy infrastrukturasi va qishloq sanoatini rivojlantirish;
- ❖ aholi bandligini yaxshilash, mehnat resurslaridan to`la va samarali foydalanish;
- ❖ mintaqa ishlab chiqarish majmuasini yanada takomillashtirish;
- ❖ «JM Uzbekiston» korxonasi negizida mintaqada mashinasozlik majmuasini shakllantirish, shu maqsadda ayrim korxonalarni qayta ixtisoslashtirish, avtomobil uchun butlovchi qismlarni asosan shu erda tayyorlash;
- ❖ ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etilishini tartibga solish;
- ❖ yangi o`sish nuqta va markazlarini shakllantirish;
- ❖ Markaziy Farg`ona hududining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirish;
- ❖ Sanoat markazlari va shaharlar ekologiyasini yaxshilash va h.k.

Shuningdek, viloyatlar o`rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada kuchaytirish, tutash hududlar bilan mamlakatlararo integratsiya jarayonlarini rivojlantirish ham maqsadga muvofiqdir. Kelajakda bu erda o`ziga xos xalqaro iqtisodiy ittifoq yoki makon yaratish mumkin.

## Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining milliy hisobotida qishloq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqliligini hisobga olgan holda, mamlakatimizning sug'orib dehqonchilik qilinadigan yerlari 5 ta qishloq xo'jalik kadastr guruhlariga ajratilgan. Ular, o'z navbatida, 10 ta klasslarga bo'lingan. Jumladan, birinchi kadastr guruhi sifat holati yomon yerlarni o'z ichiga olib, I-II klasslarga bo'linadi. Ushbu yerlarning bonitet bali 0-20 ni tashkil qilib, ular tuproq gumus qatlamining kamligi, unumdorligini pastligi bilan ajralib turadi. Ushbu kadastr guruhi yerlari dehqonchilik uchun shartli ravishda yaroqli deb topilgan. Bunday kamhosil yer maydonlari respublika bo'yicha 9762 gektarni tashkil qilib, jami sug'oriladigan yerlarning 0,3% ga teng. Bunday yerlarning katta qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Farg'ona va Buxoro viloyatlarida joylashgan.

Ikkinchi kadastr eyrlari guruhi III-IV klasslarni o'z ichiga olgan o'rtachadan past yerlardan iborat. Bunday yerlarning ball boniteti 21-40 ga teng. Ularning umumiy maydoni respublika bo'yicha 875130 gektarni tashkil qilib, jami sug'oriladigan yerlar maydonining 24,2 % ni o'zida mujassam qilgan. Sifati o'rtachadan past bo'lgan mazkur yerlarning asosiy qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari hududiga to'g'ri keladi. Ushbu guruhga mansub yerlar ikkilamchi sho'rlanish, suv eroziyasiga moyilroq, bunday yerlarda paxta, g'alla, em-xashak ekinlari, shuningdek, mekachilikni rivojlantirish mumkin.

Uchinchi kadastr guruhi tuproq boniteti 41-60 ballga teng V-VI klassga tegishli o'rtacha yerlarni o'z ichiga oladi. Ularning umumiy maydoni 1738, 2 ming gektardan iborat bo'lib, jami sug'oriladigan yerlarning 48,2 % ni qamrab olgan. Mazkur toifadagi yerlar hajmiga ko'ra Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari asosiy o'rin tutadi. Bunday yerlarning unumdorligi o'rtacha bo'lib, ularda paxta va boshqa o'simliklarni etishtirish imkoniyatlari bor.

To'rtinchi kadastr guruhi VII-VIII klass ball boniteti 61-80 ga teng bo'lgan yaxshi yerlarni o'z ichiga oladi; umumiy maydoni 900 ming gektardan ortiqroq

yoki jami sug`orma yerlarning 25,0 % ga barobar. Bunday yerlar tuproqlarining madaniylashuv darajasini yuqoriligi, barqaror unumdorligi bilan ajralib turadi. Ularning katta qismi qadimdan sug`orma dehqonchilik mintaqalarida joylashgan (Toshkent, Farg`ona, Samarqand, Andijon, Qashqadaryo viloyatlari). Ushbu guruh yerlarda barcha qishloq xo`jalik ekinlarini etishtirish maqsadga muvofiq.

Beshinchi kadastr guruhiga IX-X klass, ball boniteti 81-100 ga teng bo`lgan yuqori va barqaror unumdorlikka ega eng yaxshi yerlar kiradi. Ularning umumiy maydoni 83,7 ming gektarni tashkil qiladi va jami sug`orma yerlar maydonining 2,3 % ga teng. Bunday yerlarda paxtaning o`rtacha hosildorligi 32 s/ga bo`lib, ular yuqori unumdorlikka ega. Ularning asosiy qismi Namangan, Samarqand, Toshkent viloyatlariga to`g`ri keladi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo`ladiki, yer resurslarining hajmi, sifat holati, ulardan foydalanish darajasi va taqsimlanishi turlicha. Bu esa, o`z navbatida, mavjud yer fondidan oqilona foydalanishni va bu borada yagona davlat siyosatini amalga oshirishni taqozo etadi. Bunda, eng avvalo, yer munosabatlarini tartibga solish, yerlardan oqilona va samarali foydalanish, tabiiy-geografik, tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy-moliyaviy, texnik-texnologik jihatlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo`jaligini hududiy ishlab chiqarish majmuasini yanada rivojlantirish asosida shakllangan qishloq xo`jalik HICHM faoliyati yanada yaxshilash lozimdir. Farg`ona mintaqasi agrasanoat majmuini keyingi bosqichlarini shakllantirish qishloq xo`jalik mahsulotlarini to`la qayta ishlov berishni yo`lga qiyish xo`jalik tizimi faoliyatini yaxshilashga olib keladi.

Kelajakda qishloq xo`jaligini viloyat rivojlanishida quyidagi muammolarni hal qilish zarur:

- qishloq xo`jaligida iqtisodiyot samaradorligini oshirish;
- qishloq joylar ijtimoiy infrastrukturasi va qishloq sanoatini rivojlantirish;
- aholi bandligini yaxshilash, mehnat resurslaridan to`la va samarali foydalanish;
- mintaqa ishlab chiqarish majmuasini yanada takomillashtirish;
- ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etilishini tartibga solish;

- yangi o`lish nuqta va markazlarini shakllantirish;
- mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini shakllantirish;

Shuningdek, mintaqada iqtisodiy aloqalarni yanada kuchaytirish, tutash hududlar bilan mamlakatlararo integratsiya jarayonlarini rivojlantirish ham maqsadga muvofiqdir. Bu yerda o`ziga xos xalqaro iqtisodiy yoki makon yaratish mumkin.

Umuman olganda, Farg`ona mintaqasi respublikada qishloq xo`jaligining intensivligi bilan ajralib turadi. Bu eng avvalo qadimiy xo`jalik an'analari va tajribalari bilan bog`liq bo`lsa, ikkinchidan, aholining juda zich joylashganligi mehnat resurslari bilan juda yaxshi ta'minlanganligi bilan ham bog`liqdir. Mintaqa qishloq xo`jaligi yuqorida ko`rib o`tilganidek hududiy tafovutlarga ega. Bundan tashqari shahar atrofii qishloq xo`jaligi Farg`ona mintaqasida yaqqol xususiyatlari bilan ajralib turadi. Boshqa viloyatlarda ushbu holat unchalik ko`zga tashlanmaydi. Bu va shunga o`xshash holatlarning xususiyatlarini hisobga olish hamda yagona qishloq xo`jalik tizimini yaratilishi iqtisodiy rayon xo`jaligini yanada rivojlanishida shubhasiz katta ahmiyat kasb etadi.

Qishloq xo`jaligida tub isloxoatlarni amalga oshirilishi mulkchilikning turli xil shakllarini paydo bo`lishi va rivojlantirilishi agrosanoat ishlab chiqarishni jahon andozalariga yaqinlashtirish uchun qishloq xo`jaligiga zamonaviy texnika, texnologiyalarni, kichik biznes va tadbirkorlikni, kichkina sanoat ishlab chiqarishni olib kirish, qishloq hududlarida fermerlik xo`jaliklarini olib kirish bilan birga ularning sonini ko`paytirish qishloq xo`jaligining ustivor vazifalaridan hisoblanadi.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini iste'molchilarga yil davomida etkazib berish ularni sifatini saqlash uchun katta – katta ombxonalar qurish qishloq xo`jaligidagi rivojlanishni biroz oldinga suradi.

Qishloq aholi punktlaridagi aholining aksariyat qismi qishloq xo`jaligida band bo`lishi bilan birga bozor infrastrukturasi rivojlantirish va talab darajasiga olib chiqishi shu aholiga bog`liq bo`ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Mevasabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni.
2. 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi (2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmonning 1-ilovasi)
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ““Obod qishloq” dasturini 2018 yilda amalga oshirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” gi qarori.//Xalq so`zi gazetasi, 2018 yil 30 mart,№ 62 (7020)
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T., “O`zbekiston”, 2009.
5. Abdullayev O. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti. T., 2009.
6. Липец Ю. Г. Пуляркин В. А., Шлихтер С. Б. География мирового хозяйства. -М., 1999.
7. Крючков В.Г. Территориальная организация сельского хозяйства.- М., 1976.
8. Soliyev A, Qarshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. T., “O`zbekiston”. 1999.
9. Soliyev A. Hududiy majmualarning nazariy asoslari. T. 2005.
10. Soliyev A.S., Nazarov M. O`zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi).-T.2009.-212 b
11. Soliyev A.S., Nazarov M., Qurbonov Sh. O`zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.-T.,2010.
12. Soliyev A.S. Iqtisodiy geografiya: nazariya va amaliyot.T.2013.
13. Soliyev A. O`zbekiston geografiyasi.-T.:Universitet, 2014.
14. Qishloq taraqqiyoti va farovonligi. (Amaliy qo‘llanma).-T.: ”Ilm-ziyo”, 2009.
15. Qayumov A., Qodirov R. Qishloq xo‘jaligi geografiyasi va iqtisodiyoti. Andijon. 2010.

16. Qodirov R.Farg`ona mintaqasi aholisi va mehnat resurslari. T.2016.

17. Qurbonov Sh. Kichik hududlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi.T.2013.

### **Internet saytlari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

2. [www.referat.uz](http://www.referat.uz)

3. [www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)